



# INTERNATIONAL CONFERENCE ON MEDICINE, SCIENCE, AND EDUCATION

<https://universalconference.us>

# INTERNATIONAL CONFERENCE ON MEDICINE, SCIENCE, AND EDUCATION

## Volume 02, Issue 04, 2025 (10-MAY)

### Editor in Chief

**Dr. Rajeev Ojha** - Interdisciplinary Research in Basic Sciences, Jamia Millia Islamia, New Delhi -110025, India

### Editorial Team

Sunita Sarawagi - Indian Institute of Technology Bombay, Mumbai, India.

Dr Manjunatha LH - Professor, REVA University, INDIA

Asish Bera - Edge Hill University, UK, BITS Pilani, India

Dr Sunildro LS Akoijam - Assistant Professor of Management, North Eastern Hill University, India

Madan Mohan Singh - Professor of Mathematics, North-Eastern Hill University, Shillong, India

Dr. Anupam Singh - Associate Professor-CSE, Graphic Era Hill University Dehradun, India

Dr. Sargam Bahl Walia - School of Management, Graphic Era Hill University, Dehradun, Uttarakhand, India

Narayan Pradhan - Indian Association for the Cultivation of Science

Ashok Kumar - Kumar Associate Professor E&CE National Institute of Technology, Hamirpur, India.

Anjali Pal - Department of Civil Engineering, Indian Institute of Technology Kharagpur - 721302, India.

Rajnish Joshi - Professor of Medicine, All India Institute of Medical Sciences, Bhopal, India

Mukul Kumar - IIT Mumbai (India); Meijo University (Japan); HEG Ltd. (India)

Prof. Kuruvilla Joseph - Indian Institute of Space Science and Technology (IIST)

Prof. Yogesh C. Sharma - D.Sc., FRSC, FBRs, FIAPS; FISEES, Department of Chemistry, Indian Institute of Technology

Professor Indra Mani Mishra - Indian Institute of Technology (Indian School of Mines), Dhanbad; Formerly at

Eshkaraev Sadridin Chorievich - Head of the Department of Medicine and Natural Sciences, Doctor of Philosophy in Chemistry, Associate Professor, Termez University of Economics and Service, Termez, Uzbekistan. . ORCID

[esadir\\_74@rambler.ru](mailto:esadir_74@rambler.ru)

## **MA'RIFAT BAYROG'INI KO'TARGAN ADIB.**

**Umarqulova Barchinoy Sherali qizi**

Buxoro davlat universiteti xorijiy tillar fakulteti 3-bosqich talabasi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Abdurauf Fitratning millat ruhini uyg'otish, milliy o'zlikni anglash, xalqining porloq kelajagi yo'lidagi say-harakatlari to'g'risida batafsil ma'lumot berilgan. Shu o'rinda aytish joizki, uning millatni yuksalishga, vatanparvarlikka chorlovchi asarlari, hamda adabiyotdagi o'rni haqida ham ma'lumotlar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** millat, so'z, jadid, "Munozara", "Abulfayzxon", "Temurning sag'anasi", shoir, adabiyot.

**Abstract:** This article provides detailed information about Abdurauf Fitrat's efforts to awaken the national spirit, promote national identity, and strive for a bright future for his people. It is also worth noting that the article includes insights into his works that call for national progress and patriotism, as well as his role in literature.

**Keywords:** nation, word, Jadid, Munozara, Abulfayzkhon, The Tomb of Tamerlane, poet, literature.

O'zbek adabiyotining yirik namoyondalaridan biri, serqirra iste'dod sohibi, millatparvar jadid bobolarimizdan biri Abdurauf Fitratdir. Fitrat nomini tilga olar ekanmiz, bevosita ko'z o'ngimizda tariximizning qonli damlari, millatning yorug'lik sari intilishi, go'zal nazmiy satrlar, xalqni kurashga undovchi asarlar namoyon bo'ladi. Abdurauf Fitrat xalq dardini yurakdan his etib kuylagan, so'zga jon ato etgan adib. Abdurauf Fitrat — ma'rifatning va badiiyatning birlashgan timsoli.

Adib so'z orqali uyg'otuvchi shuur egasi. Atoqli adibimiz Abdurauf Fitrat — so'zga jon, ma'rifatga ruh, xalqga yurak bergan allomadir. Uning har bir she'ri, maqolasi, dramasi — bu millat taqdiriga befarq bo'lmagan insonning nolasi, umidi va da'vatidir. Fitrat uchun adabiyot faqat estetik zavq emas, balki ma'naviy uyg'otuvchidir. U shu yo'lda yonib ijod qildi, umrini va hayotining mazmunini xalqida ko'rdi. Millatining kelajagida ko'rdi. Shuning uchun ham millat ruhini uyg'otuvchi asarlar yozishdan bir on bo'lsada to'xtamadi.

Adib faqatgina shoir emas, el-shuurining tarjimoni. Fitrat shoir sifatida o'zini emas, elni ifoda etdi. Uning qalami xalq yuragidan otilgan dard, xalq ko'zidan to'kilgan yosh, xalq tilidan chiqqan nido edi. U o'z she'rlari orqali millat ruhini uyg'otdi, qalbini qamradi, tafakkurini balandlikka ko'tardi. Fitrat — o'z davrining ogoh qalami, desak mubolag'a bo'lmaydi.

Fitratning ijodi o‘z zamonasining eng murakkab, og‘ir va keskin davrlariga to‘g‘ri kelgan bo‘lsa-da, u asarlarida umidsizlik emas, har doim umid, qayg‘u emas, har doim uyg‘onish, zulmat emas, har doim nur haqida so‘z yuritdi. Chunki u bilar edi: xalqni uyg‘otish uchun avvalo qalbiga yorug‘lik kerak. Fitrat har bir “so‘z”ni ilhom bilan emas, mas’uliyat bilan bitdi. U so‘zga ilohiy bir kuch deb qarardi. Aynan shuning uchun uning she‘rlari haroratli, chuqur ma‘noli va o‘quvchining qalbiga bevosita ta‘sir etuvchi kuchga ega. Fitrat ijodining eng go‘zal xususiyatlaridan biri shundaki, u tuyg‘ularni falsafa bilan uyg‘unlashtira oldi. U faqat dardini emas, dardining sababini ham ko‘rsatdi; faqat muhabbatni emas, muhabbatning ma‘naviy mohiyatini ham tushuntirdi.

Fitrat — so‘z bilan millat ko‘nglini davolagan tabibdir. Fitrat she‘riyati ko‘ngil dardlariga malham bo‘lishni, ruhiy tiriklikni yangilashni o‘ziga burch deb bilgan. U shoir emas, so‘z orqali qalblarni davolagan ma‘naviy tabib edi. Fitratning adabiyotimizdagi o‘rni beqiyosdir. Abdurauf Fitrat – o‘zbek milliy uyg‘onish davri adabiyotining eng yorqin siymolaridan biridir. U nafaqat shoir va yozuvchi, balki mutafakkir, tilshunos, tarixshunos va ma‘rifatparvar sifatida ham o‘zbek adabiy tafakkurining shakllanishi va yuksalishida beqiyos xizmat qilgan. Fitratning adabiyotdagi o‘rni – bu so‘z san‘atining ma‘rifat bilan uyg‘unlashgan cho‘qqisidir.

Abdurauf Fitrat Jadid adabiyotining asoschisi. Fitrat XX asr boshlarida shakllangan jadid adabiyoti harakatining asosiy ideologi va ijodkorlaridan biridir. U adabiyotni xalqni uyg‘otish, millatni taraqqiyot sari yetaklash quroli sifatida ko‘rdi. Uning “Hind sayyohi”, “Munozara”, “Abulfayzxon”, “Temurning sag‘anasi” kabi asarlari adabiyotga yangicha yondashuv olib keldi.

Fitrat adabiyotda faqat an‘anaviy g‘azal va ruboiylar bilan cheklanmadi. U dramatik asarlar, monologik hikoyalar, publitsistik esse va maqolalar orqali yangi shakllarni adabiyotga olib kirdi. Ayniqsa, uning dramatik asarlari o‘z davri jamiyatining ichki og‘riqlarini, mustamlakachilik zulmini va milliy ruhni aks ettirgan kuchli badiiy vositalardir.

Fitrat she‘riyatida tuyg‘u bilan tafakkur uyg‘unlashgan. Uning satrlarida ishq, umid, iztirob va ma‘naviy izlanishlar chuqur falsafiy ifodasini topadi. “Shoir” she‘ri orqali u san‘atkor qalbining nozikligi, ichki olami va jamiyatdagi o‘rnini nihoyatda ta‘sirchan tarzda ifodalaydi. Bu she‘r Fitratning faqat estetik emas, balki ruhiy va falsafiy darajadagi ijodkor ekanini ko‘rsatadi.

Atoqli adibimiz adabiyot orqali millatni uyg‘otgan fidoyidir. Fitrat har bir asarini millat uchun yozdi. U til, din, madaniyat va mustaqillik g‘oyalarini asarlari orqali xalq ongiga singdirdi. Uning adabiy missiyasi – faqat san‘at emas, balki uyg‘otuvchilik, tarbiyachilik, kurash edi. Fitrat o‘zbek adabiy tilini rivojlantirishda ham muhim o‘rin

tutadi. U soddallashtirilgan, xalq tiliga yaqin, lekin badiiy obrazlar bilan boyitilgan uslub yaratdi. Bu til orqali u keng ommaga murojaat qila oldi. Abdurauf Fitratning adabiyotdagi oʻrni – bu oʻz davrining ijtimoiy, madaniy va siyosiy muammolariga javob bera olgan, badiiylik orqali millatning ruhiy uygʻonishiga xizmat qilgan ijodkor sifatida mustahkamlanadi. U faqat shoir emas, balki adabiyotda maʼrifat bayrogʻini koʻtargan, xalq qalbiga haqiqatni singdirgan soʻz sultoni boʻlib qoldi.

Fitrat oʻzbek tilini boyitish, adabiyotni xalq ongining koʻzgisiga aylantirish yoʻlida beqiyos xizmatlar koʻrsatdi. U birinchi boʻlib oʻzbek adabiyoti uchun milliy gʻoya, tarixiy tafakkur va zamonaviy shakl uygʻunligini yaratdi. Uning "Oʻzbek adabiyoti namunalari" toʻplami — adabiy merosni jamlashdagi ilk dadil qadam edi.

Shuningdek, Fitrat arab, fors va turkiy adabiyot namunalari oʻrganib, ularni oʻzbek oʻquvchilariga yaqinlashtirishga harakat qildi. U sheʼr orqali ham, maqola orqali ham xalqni uygʻotdi, maʼnaviyatini oshirdi.

Fitrat uchun Vatan — yurakdagi eng buyuk tuygʻu edi. U bu tuygʻuni faqat yozgan soʻzlarida emas, balki butun hayotida isbotladi. Sovet hukumatining mafkuraviy zulmi ostida ham u haqiqatdan voz kechmadi. 1938-yilda qatagʻon qurboni boʻlgan Fitrat oʻz eʼtiqodidan qaytmadi, Vatan uchun jonini fido qildi.

Abdurauf Fitrat — oʻz umrini xalqning uygʻonishi, millatning rivoji va Vatan erkinligi uchun bagʻishlagan buyuk maʼrifatchi, fidoyi siyosatchi, mohir adib va ilm-fan arbobi ekanligi bilan ham yanada qadrlidir. Uning vatanparvarlik faoliyati nafaqat qalamda, balki harakatda, islohotda, kurashda namoyon boʻlgan. Fitratning eng buyuk xizmatlaridan biri — xalqni jaholatdan, savodsizlikdan, eʼtiqodiy sustkashlikdan chiqarish yoʻlidagi jasoratli harakatlaridir.

Abdurauf Fitrat — bu xalq uchun yashagan, vatan uchun kuylagan, ilm uchun kurashgan siymodir. Uning har bir satri, har bir harakati va hatto shahidligi — Vatanga muhabbatning yuksak namunasi boʻlib qoldi. Bugun biz erkin, oʻzbek tilida soʻzlashayotgan avlod boʻlsak, bu yoʻlda Fitrat kabi fidoyilarning qoni, koʻz yoshi va umidlari mujassamdir.

Bugungi kunda buyuk adibimiz asarlari har bir yosh avlod tomonidan sevib mutolaa qilinmoqda. Fitrat asarlari koʻplar ilmiy ishlar, badiiy asarlar, tarixiy asarlar uchun ham poydevor vazifasini oʻtamoqda. Biz mana shunday mutafakkir bobolarimiz bilan faxrlanamiz.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. "Abdurauf Fitrat. Tanlangan asarlar" — Toshkent: Fan, 1990.
2. Salohiddinov, A. "Fitrat va uning maʼnaviy merosi" — Toshkent: Oʻzbekiston Milliy Ensiklopediyasi nashriyoti, 2003.
3. Oʻrinboyev, M. "Jadid adabiyoti va Fitrat" Oʻzbek tili va adabiyoti jurnali..
4. "Oʻzbek adabiyoti tarixi" (2-jild) — Toshkent: Fan, 1978.
5. Toʻraqulov, S. "Fitrat — maʼrifat va istiqloq shoiridir". Maʼrifat gazetasi, 2015-yil, mart.

## **ОЦЕНКА РЕЗУЛЬТАТОВ ЛЕЧЕНИЯ КИСТОЗНЫХ ОБРАЗОВАНИЙ ЧЕЛЮСТЕЙ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ КСЕНОМАТЕРИАЛОВ**

**Абдукадиров Абдусалом Абдукадирович, Азимходжаева Феруза  
Абдикаримовна**

Центр развития профессиональной квалификации медицинских работников,  
кафедра хирургической стоматологии

**Ключевые слова:** ксенотрансплантат, челюстные кисты, костная регенерация, цистэктомия, остеогенез.

### **Введение**

Лечение челюстных кистозных образований включает различные методики костной пластики. В настоящее время активно исследуются способы направленной костной регенерации с применением трансплантатов, содержащих биологически активные компоненты.

Цель исследования

Сравнить клинические результаты костной регенерации после цистэктомии с заполнением дефекта ксеноматериалом, смешанным с аутокровью пациента, и без него.

Материалы и методы

Исследование охватывало 40 пациентов с диагнозом "челюстная киста", обратившихся в отделение ЧЛХ с 2020 года. Пациенты были разделены на две группы:

- Группа А (n = 20) — контрольная, проводилась только цистэктомия.
- Группа В (n = 20) — костный дефект заполнялся смесью ксенотрансплантата и аутокрови.

Дополнительно пациенты были классифицированы по размеру кист: малые (1–3 см), средние (3–5 см), крупные (>5 см). Для оценки динамики регенерации использовались 3D Slicer, СВСТ, DICOM-анализ, а также расчет объема кист по формуле эллипсоида.

Результаты

Через 6 месяцев после операции скорость остеогенеза составила:

- В группе А —  $76,06 \pm 13,38\%$ .
- В группе В —  $92,87 \pm 5,72\%$  ( $p < 0,05$ ,  $t = -6,84$ ).

Статистически значимые различия подтверждают более активную костную регенерацию при использовании трансплантата.

### Выводы

Комбинация ксеноматериала с аутокровью значительно улучшает остеогенез в зоне дефекта, ускоряет заживление и способствует лучшей регенерации кости, что делает этот метод перспективным для восстановления костных дефектов и последующей дентальной реабилитации.

## POEMS-IN MEMORY OF CONTEMPORARIES OF MAQSUD SHAYKHZADEH

**Tashkent State taransport University**  
**Mamurova Feruza Islamovna**  
**Rozmamatova Zilola Dilshodbek qizi**

**Annotation:** Maqsud Shaikhzoda's contribution to the prosperity of Uzbek literature, culture was deservedly honored by independent Uzbekistan and its government. A row school and streets are named after him. In this article, the work of Maqsud Shaykhzoda spoke about the importance of qualities such as courage, fairness, thoughtful thinking, popularism, expressed in the image of the heroes of the work in Uzbek literature.

**Keywords.** poetry, uzbek poetry, poetic cells, poetic collection, sense of sophistication, spiritual extension, urination, direction, artistry.

Shaikhzoda stood out from all of us not only in the sense of reason, but also in the sense of siymo. The idle question of the autonomous mouth did not seem to melt into it. On the contrary, everywhere, all the time, in all environments and conditions, the feeling of pride, which has made his heart prosperous, has been exasperated. He leaned, even proud, and said that he was Azerbaijani, coming from Azerbaijan. While reciting the same words, Maqsud's face seemed as if the sun in the sky had moved (Maqsud from a page of memoirs about the Sheikhzoda).

Maqsud Shaykhzadeh [1908.25.10 (7.11) – 1967.19.2] – poet, playwright, literary critic, translator, educator. Honored Artist of Uzbekistan (1964). Graduated from dorilmuallimin in Baku (1925). Arrested in 1927 as a member of the counter-revolutionary organization, he was exiled to Tashkent in February 1928. After a short period of study at the Oriental Faculty of the University of Central Asia (1928), he served in the editorial offices of the "eastern truth" (1929-32), "Red Uzbekistan", "young Lenin" newspapers (1932), "Gulistan" magazine (1933-34). Graduated from Baku Pedagogical Institute (1934). He worked as a researcher at the Institute of language and literature in Tashkent (1935 -38). Since 1938, he has been a teacher at the Tashkent Pedagogical Institute named after Nizami.

"Ten poems "(1932)," my consonants "(1933)," book Three "(1934)," new Devon "(1937)," battle and song"," Heart says... "(1943)," notebook of fifteen years "(1947)," land poems "(1948)," years and roads "(1961)," Poems " (1964) and other poetry collections have been published. He wrote LiRo-epic works in the epic genre, including "inheritance", "dust and truth" (1936), "The Story of a hunter", "Iskandar Zulqarnayn"

(1940), "the eleven" (1943), "the wisdom of Ahmadjan", "the third son" (1944), "the dream of a Nurmat father" (1947). Shaykhzoda discovered new artistic possibilities of rhyme and brought new manifestations of weight and shape into Uzbek poetry. This principle inherent in the work of the poet was vividly expressed in his, especially in the lyrical epic "Tashkent" (1958).

Author of "Jaloliddin Manguberdi" (1944), tragedies "Mirzo Ulugbek" (1961), several scientific articles, monographs ("the genial poet", 1941). IT IS LOCATED AT. Rustaveli's epic "The pahlavon who covered the tiger skin" (collaborative), he. Shakespeare's sonnets, a.S. Pushkin's Poems, the epic "The Copper rider", the tragedy "Mosart and Saleri", m. Yu. Lermontov's poems and the epic "prisoner of the Caucasus" were translated into Uzbek.

Shaykhzoda was arrested in 1952, sentenced to 25 years in prison, and released in 1954.

Maqsud Shaykhzoda died on February 19, 1967. He was buried in the chigatoy cemetery. Awarded the order of merit (2001). One of the streets in Tashkent is named after Shaykhzoda.

\* \* \*

There will be lifetimes,  
Alive is dead.  
There will be deaths,  
The dead man is alive.

### **Uzbekistan**

Air that is also stored in a closed crate,  
But the air breath that he lost,  
To say it air, noravo himself,  
The Bandit chokes longing.  
He is a carefree, innocent, like a dead wine,  
Neither drunkenness nor excitement.  
Whereas, in a free flight,  
Elga ran while playing as a partner,  
The piece of the well, on a huge scale –  
In the barren deserts, the sands have cooled.  
Or evening time with shabboda  
Kissed girls under the plantains,  
Bonfire when burning in the gorges,  
A little bit of isinga ran into the fire.  
That's what Bari was. Bari truth...

But it is remembered in dreams only.  
A piece of air choked in the chest  
The claim that one cohorts are free...  
So: a tinted Cup in water  
There is a legend of floods, streams,  
In a broken mirror that is blurred  
Khushroi has the ruins of Husni,  
In today's silence, if you listen, dildor,  
Yesterday's weddings have a Taron.

Shaikhzoda stood out from all of us not only in the sense of reason, but also in the sense of siymo. The idle question of the autonomous mouth did not seem to melt into it. On the contrary, everywhere, all the time, in all environments and conditions, the feeling of pride that has made his heart prosperous has been exasperated. He leaned, even proud, and said that he was Azerbaijani, coming from Azerbaijan. While reciting the same words, Maqsud's face seemed as if the sun in the sky had moved (Maqsud from a page of memoirs about the Sheikhzoda.

Shaykhzoda turned Pushkin's "copper rider", Lermontov's "prisoner of the Caucasus", Mayakovsky's "very neat" epics and many poems, Shakespeare's tragedies and sonnets "Hamlet", "Romeo and Juliet", Nozim Khikmat's poems, works of Azerbaijani poets and into Uzbek.

The scientific work of shaykhzadeh on the history of Uzbek literature, Uzbek folk oral creativity, in particular on the research of Alisher Navoi creativity, is also noteworthy. He was also a candidate of philological Sciences, Associate Professor. Shaikhzoda's works have been carefully translated into several languages of the world.

#### **Literature used:**

1. Mamurova, F., & Ataxanov, O. (2024). MAQSUD SHAYXZODA HAYOTI HAQIDA. Akademicheskie issledovaniya v sovremennoy nauke, 3(10), 111-116.
2. Mamurova, Feruza, and Durdon Obutjonova. "DESCRIBING MAKSUD SHAIKZODA." Current approaches and new research in modern sciences 3.4 (2024): 5-8.
3. Obutjonova, D. (2024). O'ZBEK VA OZARBAJON XALQINING SEVIMLI SHOIRI. Akademicheskie issledovaniya v sovremennoy nauke, 3(10), 103-105. Mamurova F.I. i Durdon O. (aprel 2024 g.). MAKSUD ShAYXZODANING «MIRZO ULUGBEK"ASARI TALILI. V Mejdunarodnoy globalnoy konferensii (Tom 1, № 6, str. 79-81).

4. Durdona, O., & Mamurova, F. I. (2024, April). MAQSUD SHAYXZODA “TOSHKENTNOMA”. In International Global Conference (Vol. 1, No. 5, pp. 148-152).
5. Mamurova, F., & Obutjonova, D. (2024). MAQSUD SHAYXZODANING “JALOLIDDIN MANGUBERDI” DRAMASINING YOZILISH TARIXI VA VATANGA BO ‘LGAN MUHABBATI, JASORATINING IFODALANISHI. Akademicheskie issledovaniya v sovremennoy nauke, 3(12), 13-16.
6. Mamurova, F., & Obutjonova, D. (2024). DESCRIBING MAKSUD SHAIKZODA. Current approaches and new research in modern sciences, 3(4), 5-8.
7. Durdona, O., & Islamovna, M. F. (2024, March). SHAYXZODA SIYMOSIGA TA’RIF. In International Global Conference (Vol. 1, No. 1, pp. 188-191).
8. Mamurova, F., & Qodirov, I. (2024). MAQSUD SHAYXZODANING “TOSHKENTNOMA”-SHUKRONALIK DOSTONI. Molodye uchenye, 2(6), 87-89.
9. Islamovna, M. F. (2024). THE PLACE OF MAKSUD SHEIKZODA'S LIFE AND CREATION IN UZBEK NATIONAL LITERATURE. MEDITSINA, PEDAGOGIKA I TEXNOLOGIYA: TEORIYA I PRAKTIKA, 2(2), 471-474.
10. Mamurova, F. I., & ugli Abdubahabov, A. A. (2023). TWO FOLK POETS. “TRENDS OF MODERN SCIENCE AND PRACTICE”, 1(3), 23-30.
11. Islomovna, M. F., & Abduvoxob o’g’li, A. A. (2023, January). Maqsud Shayxzodaning Hayoti Va Ijodi. In Interdisciplinary Conference of Young Scholars in Social Sciences (USA) (pp. 19-20).
12. Mamurova, F. I. (2021, May). ARTIST OF UZBEKISTAN MAKSUD SHEIKHZADE. In E-Conference Globe (pp. 176-178).

## **INTERAKTIV TA'LIM METODLARI**

**Rahimberganova Oydinjon Qahramanovna**

1-kurs Umumiy Onkologiya yo'nalishi magistr talabasi

+998953720507

[oydinjon.1998@gmail.com](mailto:oydinjon.1998@gmail.com)

**Olimova Dano Shakirovna**

Pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada interaktiv ta'lim metodlarining zamonaviy ta'lim jarayonidagi o'rni va ahamiyati yoritilgan. Unda talabalarning faolligini oshirish, bilimlarni mustahkamlash, mustaqil fikrlash va muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishda interaktiv metodlarning samaradorligi tahlil qilinadi. Shuningdek, amaliy darslarda qo'llaniladigan muhim interaktiv usullar, ularning afzalliklari hamda ta'lim sifatiga ta'siri haqida fikr yuritilgan. Maqola pedagogik tajriba va ilmiy manbalar asosida yozilgan bo'lib, ta'lim tizimini takomillashtirish yo'lida muhim ahamiyatga ega.

**Kalit so'zlar:** interaktiv metodlar, ta'lim jarayoni, pedagogika, samaradorlik, talabalar faolligi, amaliy dars, muloqot ko'nikmalari, mustaqil fikrlash, o'qitish strategiyasi, zamonaviy ta'lim, innovatsion yondashuv, ta'lim sifati.

### **Kirish.**

Hozirgi kunda dunyo ta'lim tizimida yuz berayotgan tub islohotlar va innovatsion yondashuvlar ta'lim mazmuni va shakllarini tubdan o'zgartirmoqda. An'anaviy darslar o'rnini talaba shaxsini rivojlantirishga, ularning fikrlash va ijodiy salohiyatini ochishga qaratilgan interaktiv metodlar egallab bormoqda. Interaktiv ta'lim – bu o'quvchi va o'qituvchi o'rtasidagi faol muloqotga asoslangan, bilim olish jarayonida ikki tomonlama aloqani ta'minlaydigan, ishtirokchilarni o'z fikrini erkin ifoda etishga, jamoada ishlashga va mustaqil qaror qabul qilishga o'rgatuvchi usullar majmuidir. Interaktiv metodlar talabalarning darsdagi faolligini oshirish, bilimlarni chuqurroq anglash, mustaqil fikrlash va tahlil qilish ko'nikmalarini shakllantirishda samarali vosita hisoblanadi. Ayniqsa, sog'liqni saqlash sohalarida, jumladan, umumiy onkologiya yo'nalishida tahsil olayotgan magistrlar uchun interaktiv metodlardan foydalanish nazariy bilimlarni amaliy ko'nikmaga aylantirish, tibbiy muammolarga tizimli va kompleks yondashuvni shakllantirishda muhim o'rin tutadi. Mazkur maqolada interaktiv ta'lim metodlarining mohiyati, turlari, ularning ta'lim sifati va

samaradorligiga ta'siri, hamda ularni dars jarayonida qo'llash tajribalari haqida so'z yuritiladi.

### **Asosiy qism.**

Zamonaviy ta'lim tizimi ta'lim oluvchilarning faolligiga asoslangan, bilimni tayyor holatda berishga emas, balki ularni izlanishga, mustaqil fikrlashga undaydigan metodlarni talab qilmoqda. Bu ehtiyoj interaktiv ta'lim metodlarini keng qo'llash zaruratini yuzaga keltirdi. Interaktiv metodlar o'qituvchi va talaba o'rtasida faol muloqot, hamkorlik, bahs-munozara va muhokama orqali ta'lim jarayonini tashkil etishga xizmat qiladi. Interaktiv ta'lim metodlarining mohiyati. Interaktiv metodlar – bu o'qituvchining passiv axborot yetkazuvchisi emas, balki ta'lim jarayonining teng huquqli ishtirokchisi sifatida talaba bilan muloqotga kirishishi orqali bilim va ko'nikmalarni shakllantiradigan pedagogik yondashuvdir. Bu metodlarda talaba o'quv jarayonining markazida bo'lib, u o'z faoliyati bilan bilimni egallaydi, tahlil qiladi, baholaydi va yangidan-yangi g'oyalarni ishlab chiqadi. Interaktiv metodlarning asosiy turlari. Interaktiv metodlar turli shakllarda namoyon bo'ladi. Ularning har biri ma'lum bir pedagogik maqsadga xizmat qiladi: “Aqliy hujum” – muammoning yechimini topish uchun tezkor va erkin fikr almashinuvi. Bu metod ijodiy tafakkurni rivojlantiradi. “Cluster” (g'oyalar xaritasi) – muayyan tushuncha atrofida bog'liq g'oyalarni tizimli ravishda ifodalash. Rol o'ynash (rolli o'yinlar) – real hayotdagi vaziyatlarni modellashtirish orqali amaliy ko'nikmalarni shakllantirish. “Fishbone” yoki sabab-oqibat tahlili – muammoli vaziyatlar sabablarini tahlil qilishga yo'naltirilgan metod. Munozara va debatlar – fikr bildirish, muloqot qilish, o'z pozitsiyasini asoslab berish ko'nikmasini shakllantiradi. “INSERT” (Interaktiv o'qish) – matn ustida ishlashda belgilar orqali o'quvchi fikrini ifodalashi va tahlil qilishi.

Interaktiv metodlarning afzalliklari:

1. Talabalarni faollikka undaydi. Ular dars jarayonida bevosita ishtirok etib, bilimni passiv emas, faol tarzda egallaydi.
2. Ijodkorlikni rivojlantiradi. Mustaqil fikrlash, muammoni turli yo'llar bilan yechish, innovatsion yondashuvlar shakllanadi.
3. Kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantiradi. Talaba o'z fikrini erkin ifoda etish, bahslashish, muloqot qilishni o'rganadi.
4. Amaliy ko'nikmalarni shakllantiradi. Ayniqsa, tibbiy sohalarda, interaktiv metodlar orqali talaba nazariyani amaliyot bilan bog'lay oladi.
5. Jamoaviy ishlash madaniyatini singdiradi. Ko'p interaktiv metodlar guruhda ishlashni talab qilgani bois, talabalar o'zaro hurmat, muomala madaniyati va hamkorlik ruhida faoliyat yuritishni o'rganadi. Interaktiv metodlarning onkologiya yo'nalishidagi ahamiyati. Tibbiyot sohasida tahsil olayotgan talabalar uchun interaktiv metodlar

ayniqsa muhim. Onkologiya kabi murakkab va mas'uliyatli yo'nalishda ta'lim oluvchilarning nazariy bilimlari bilan bir qatorda ularning muloqot, psixologik yondashuv, muammoli vaziyatni anglay olish va tezkor qaror qabul qilish ko'nikmalari ham muhim hisoblanadi. Interaktiv metodlar bu jihatlarni rivojlantirishga katta hissa qo'shadi. Misol uchun, rol o'ynash yoki klinik holatlarni muhokama qilish orqali talabalar bemorlar bilan ishlash, ularning psixologiyasini tushunish, kasallik holatini to'g'ri baholash va jamoaviy tibbiy qarorlar chiqarishni o'rganadilar. Ilg'or xorijiy tajriba. Dunyoning ko'plab ilg'or oliy o'quv yurtlarida interaktiv metodlar asosiy ta'lim vositasiga aylangan. Masalan, AQSh, Buyuk Britaniya, Germaniya universitetlarida "case-study", "problem-based learning", "team-based learning" kabi metodlar orqali talabalar real hayotiy tibbiy holatlar asosida bilim va malaka hosil qiladilar. Bu yondashuv ularning mustaqil fikrlashi, klinik qarorlar qabul qilish va jamoaviy ishlash malakalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

#### **Xulosa:**

Xulosa qilib aytganda, interaktiv ta'lim metodlari zamonaviy ta'lim jarayonining ajralmas va muhim qismiga aylangan. Bu metodlar orqali talabalar faollikka undaladi, ularda mustaqil fikrlash, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, muloqot qilish va jamoaviy ishlash kabi zaruriy ko'nikmalar shakllanadi. Ayniqsa, umumiy onkologiya kabi murakkab va mas'uliyatli yo'nalishlarda ta'lim olayotgan talabalar uchun interaktiv metodlardan foydalanish kasbiy tayyorgarlikni mustahkamlashda muhim o'rin tutadi. Interaktiv yondashuv darslarning samaradorligini oshirish, o'quvchilarni bilim olish jarayonining faol ishtirokchisiga aylantirish, bilimlarni amaliyotga tatbiq eta olish qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu bois, pedagoglar o'z faoliyatida interaktiv metodlardan samarali foydalanishni yo'lga qo'yishlari, ularni o'ziga xos tarzda, dars mazmuniga mos holda tanlab qo'llashlari muhim ahamiyatga ega. Bu esa ta'lim sifatini oshirish bilan birga, kelajakdagi malakali va raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlashda asosiy omillardan biri bo'lib xizmat qiladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Abduqodirov A.A., Xaydarov O.X. Pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: O'qituvchi, 2020.
2. Karimov E., Tadjiev S. Zamonaviy ta'lim metodlari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2019.
3. Zokirova M.H. Pedagogik mahorat asoslari. – Toshkent: Noshir, 2021.
4. Jalolov J.J. Pedagogika: nazariya va amaliyot. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2018.
5. Muminov M.Q. Interfaol ta'lim texnologiyalari. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2020.
6. UNESCO. Interactive teaching methods in higher education. – Paris, 2017.

7. Bonwell C.C., Eison J.A. Active Learning: Creating Excitement in the Classroom. – ASHE-ERIC Higher Education Report No. 1, 1991.
8. Barkley E.F., Cross K.P., Major C.H. Collaborative Learning Techniques. – San Francisco: Jossey-Bass, 2014.

## **NEFROSKLEROZNING RIVOJLANISHINI TASHXISLASHNING SAMARALI VA INVAZIV BO‘LMAGAN USULLARINI ISHLAB CHIQUISH MASALALARINING DOLZARBLIGI**

**Umarova Nargiza Nuritdinovna**

Respublika shoshilinch tibbiy yordam ilmiy markazi shifokori

***Annotatsiya:** so‘nggi yillarda dunyo aholisi o‘rtasida surunkali buyrak yetishmovchiligi kasalligi bilan og‘rigan bemorlar soni ortib bormoqda va uni erta aniqlash muhim ahamiyatga ega. Surunkali piyelonefrit bilan og‘rigan bemorlarda nefrosklerozning rivojlanishini tashxislashning samarali va invaziv bo‘lmagan usullarini ishlab chiqish masalalari hozirgi kunda dolzarb hisoblanadi.*

***Kalit so‘zlar:** surunkali buyrak yetishmovchiligi, albuminuriya, sistatin C, surunkali piyelonefrit, buyrak nefrosklerozi, molekulyar biomarkerlar, glomeruloskleroz, atrofiya, nefropatiya markerlari.*

So‘nggi yillarda dunyo aholisi orasida surunkali buyrak yetishmovchiligi kasalligi bilan og‘rigan bemorlar sonining ortib borishi kuzatilmoqda [1].

O‘tgan asrda surunkali buyrak yetishmovchiligi natijasi bilan nefrosklerozning rivojlanishiga olib keladigan sababga ko‘ra glomerulonefrit yetakchilik qildi. Holbuki, hozir qandli diabet va arterial gipertenziya birinchi o‘rinda tursada, statistik ma‘lumotlarga ko‘ra Yevropa davlatlarida surunkali buyrak yetishmovchiligi har 1000000 aholiga 600 holat to‘g‘ri keladi [2].

Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti (JSST)ning 2022-yilda e‘lon qilingan so‘nggi ma‘lumotlariga ko‘ra, O‘zbekistonda buyrak kasalligi natijasid o‘lim holatlari 3,133 nafar yoki umumiy o‘limning 1,94 foizini tashkil qilgan. Yoshga qarab o‘lim darajasi 100 000 aholiga 12,57 ni tashkil etib, bu holat bo‘yicha O‘zbekiston dunyoda 130-o‘rinda turadi.

Hozirgi kunda gemodializda (sun‘iy buyrak) bo‘lgan surunkali buyrak yetishmovchiligi mavjud nefrosklerozli bemorlar soni 10-20% ni tashkil qiladi. Bundan tashqari, surunkali buyrak yetishmovchiligi bilan kasallangan bemorlar orasida o‘lim ko‘rsatkichi yiliga 22% ni tashkil etadi.

Bugungi kunga kelib, faol rivojlanayotgan nefroproteksiya konsepsiyasi turli nefropatiyalarda buyrak yetishmovchiligining terminal bosqichiga o‘tishini sekinlashtirishga imkon berdi, ammo ichki kasalliklar klinikasi hali ham bu muammoni to‘liq hal qilishdan uzoqdir [3].

Peshob chiqarish yo‘llari orqali peshob o‘tishining buzilishi jomchalar ichki bosimini

ortishiga olib keladi, bu esa o'z navbatida buyrak qon oqimining o'zgarishiga olib keladi. Surunkali obstruksiya buyrak to'qimalarining shikastlanishiga va fibrozning rivojlanishini keltirib chiqaradi [4, 5].

Ilmiy ishlarning tahlili shuni ko'rsatadiki, surunkali buyrak kasalligida nefroskleroz muammosi keng o'rganilganiga qaramay, uning ko'plab jihatlari bugungi kunda munozarali bo'lib qolmoqda va faol ravishda o'rganilmoqda. Bu, birinchi navbatda, surunkali piyelonefritli bemorlarda nefrosklerozning rivojlanishida turli biomarkerlarning rolini aniqlashga tegishlidir.

Ammo, hozirgi kunda piyelonefritda sklerotik jarayonlar rivojlanishida uni o'rganish bo'yicha kuzatuvlar adabiyotlarda yetarli emas.

Hozirga qadar surunkali buyrak kasalliklarida nefroskleroz yuzaga kelishida qaysi markerlar hamda o'zgarishlar birlamchi sabab bo'lishi to'g'risida ilmiy kuzatuvlar yetarli emas va uni aniqlash muhim amaliy ahamiyatga ega. Bundan tashqari ushbu markerlarni aniqlik darajasi solishtirma o'rganish kasalliklarda yuzaga keladigan nefropatiyani erta tashxislash va monand davolash imkoniyatini yaratadi.

Hozirgi vaqtda bemorni to'liq tekshirish turli markerlardan foydalanishni o'z ichiga olishi kerak, ularning har biri glomerulyar funksiyalarning buzilishi yoki buyrakning interstitsial shikastlanishi haqida xabar berishi mumkin.

Ba'zi hollarda markerlar buyrak funksiyalarining o'rtacha buzilishini ko'rsatishga qodir, bu ko'pincha e'tiborga olinmaydi. Shu bilan birga, ular haqida ishonchli ma'lumotga ega bo'lmagan turli xil biomarkerlardan foydalanish klinik vaziyatni baholashda shifokorlarni chalg'itishi, diagnostika va davolash jarayonining narxini oshirishi va shunga mos ravishda davolanish natijalariga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Shunga qaramay, buyrak to'qimalarining shikastlanishining yangi, sezgir belgilari mavjud yondashuvlarga nisbatan buyrak shikastlanishini erta aniqlash uchun yaxshi vosita bo'lishi mumkin. Buyraklar nefrosklerozining ko'plab potensial biomarkerlarining klinika uchun ahamiyati yanada chuqurroq o'rganishni talab qiladi. So'nggi yillarda nefropatiyani erta spetsifik markerlari har tomonlama chuqur o'rganilmoqda. Ular orasida ko'proq o'rganilgani va diqqatga sazovori sistatin-C hisoblanadi. Hozirgi vaqtda kreatinin bilan bir qatorda sistatin-C ko'ptokchalar filtratsiyasi tezligini aniqlashda oltin standart hisoblanadi va kreatiniga nisbatan sezilarli ustunlikka ega. Uni qonda aniqlash yordamida buyrak ko'ptokchalari holati hamda ko'ptokchalar filtratsiyasi tezligi to'g'risida aniq axborot olinsa peshobdagi miqdori tubulyar buzilishlardan dalolat beradi.

Surunkali piyelonefrit fonida bemorlarda nefrosklerozning erta bosqichlarida an'anaviy (kreatinin, uning yordamida aniqlanadigan ko'ptokchalar filtratsiyasi,

albuminuriya, sistatin C, uning yordamida aniqlangan koʻptokchalar filtratsiyasi) nefropatiya markerlari bilan bir qatorda kasallik rivojlanishini belgilaydigan markerlarni oʻrganish dolzarb boʻlib qolmoqda.

Surunkali piyelonefrit fonida bemorlarda nefrosklerozning rivojlanish mexanizmlari toʻgʻrisida ilmiy tushunchaning kengayishi turli patogenetik omillarning hissasini va ularning oʻzaro taʼsirini baholashning murakkabligi bilan bogʻliq. Shu bilan birga, nefrosklerozning rivojlanishi va avj olish xavfini aniqlaydigan yangi invaziv boʻlmagan informatsion belgilarning paydo boʻlishi buyrak disfunktsiyasini erta tashxislash va maqsadli terapiyani rivojlantirish algoritmlarini batafsil bayon qilish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi.

Aholi orasida buyrak shikastlanishining yuqori tarqalishi, shu jumladan uni yosh, mehnatga layoqatli qismida kuzatilishini koʻpayishi, prognozning ogʻirligi davolash muammolarining yetarli darajada rivojlanmaganligi bilan bogʻliq.

Buyrak nefrosklerozining patogenezini oʻrganishda buyrakda yalligʻlanish jarayonlarini amalga oshirish mexanizmlarini dekodlash va eng informatsion diagnostika usullarini ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega.

Surunkali buyrak kasalliklarini erta tashxislash va profilaktika usullarini ishlab chiqish, keyinchalik rivojlanish ehtimolligi boʻlgan asoratlarning oldini olish imkonini beradigan klinik – laborator markerlarni takomillashtirishga yoʻnaltirilgan masalalar muhimligicha qolmoqda.

Shunday qilib, surunkali piyelonefritli bemorlarda nefrosklerozning rivojlanishini tashxislashning samarali va invaziv boʻlmagan usullarini ishlab chiqish masalalari hozirgi kunda dolzarb hisoblanadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Bobkova I.N., Kozlovskaya L.V., Rameyeva A.S. Surunkali glomerulonefritda tubulointerstitsial fibrozni baholashda peshobdagi endotelial disfunktsiya belgilarini va angiogenez omillarini aniqlashning klinik ahamiyati // Ter. arx., 2017. –№6. –B.10-15.
2. Bondar I.A., Klimontov V.V., Kim L.B., Paul G.A. Nefropatiyaning dastlabki bosqichlari boʻlgan 1-tur diabet bemorlarda fozinoprilom terapiyasining kollagen va proteoglikan metabolizmiga taʼsiri // Byulleten SO RAMN, 2019. – №3. – B.180-185.
3. Burton C.Y., Walls Y. Proximal tubular cell, proteinuria and tubulointerstitial scarring. //Nephron. – 2018. –Vol. 68. –P.287-293.
4. Botyushin M.M., Dmitriyeva O.V. Analgetik interstitsial shikastlanishi xavfini bashorat qilish uchun hisoblash usullari //Ter. arx., 2016. –№6. –B.62-65.

5. Kadirov Z.A. Nusratulloev I. Tojikistonda nefrolitiyozning og‘irligi va tarqalishini baholashda zamonaviy laboratoriya tahlil usullarining imkoniyatlari // Klin. va laborator diagnostika //Klin.va lab. diganostikasi, 2019. –№11. – B.17-21.

## ИММУНОМОДУЛЯЦИЯ ПРИ ХРОНИЧЕСКОМ ЭНДОМЕТРИТЕ: ВЛИЯНИЕ ТЕРАПИИ ГЛЮКОКОРТИКОИДАМИ НА ЧАСТОТУ ИМПЛАНТАЦИИ В ПРОГРАММАХ ЭКО

Мадаминова Лайло Матякубовна

*Ташкентский педиатрический медицинский институт (Ташкент, Узбекистан)*

**Актуальность исследования.** Хронический эндометрит является одной из наиболее распространенных причин бесплодия и неудачных попыток имплантации эмбриона в программах экстракорпорального оплодотворения (ЭКО). Это воспалительное заболевание матки может значительно ухудшать репродуктивные результаты, нарушая нормальную иммунологическую реакцию эндометрия, что препятствует успешному прикреплению эмбриона и его нормальному развитию.

Проблема эффективности иммунотерапии, в том числе использования глюкокортикоидов, остается одной из наиболее обсуждаемых в репродуктивной медицине. Несмотря на многообещающие теоретические предпосылки, клинические результаты часто варьируются в зависимости от различных факторов, таких как степень выраженности хронического эндометрита, индивидуальные особенности пациента, а также конкретные схемы применения ГКС. Таким образом, необходимы дополнительные исследования, которые могли бы уточнить роль глюкокортикостероидной терапии в контексте ЭКО.

Решение данной проблемы крайне актуально, поскольку успешная имплантация эмбриона является ключевым этапом в достижении беременности в рамках программ ЭКО. Улучшение исходов лечения хронического эндометрита с использованием иммунотерапевтических методов, в том числе ГКС, может значительно повысить частоту успешных беременностей и снизить финансовую нагрузку на пациентов и системы здравоохранения в целом.

Исследование воздействия глюкокортикоидов на частоту имплантации при хроническом эндометрите в программах ЭКО имеет важное значение для оптимизации методов лечения бесплодия, а также для разработки персонализированных терапевтических подходов в репродуктивной медицине.

**Цель исследования.** Целью исследования является оценка влияния терапии глюкокортикоидами на частоту имплантации эмбрионов у женщин с хроническим эндометритом в рамках программы экстракорпорального оплодотворения (ЭКО). Исследование направлено на изучение воздействия глюкокортикоидов на иммунный ответ эндометрия и воспалительные процессы,

а также на анализ их эффективности в повышении шансов на успешную имплантацию и беременность.

**Материалы и методы.** Для исследования были использованы клинические данные женщин с хроническим эндометритом, проходящих ЭКО. Пациентки были разделены на две группы: основную (получавшую глюкокортикоиды) и контрольную (не получавшую глюкокортикоиды). Были проведены иммуноферментный анализ для оценки воспалительных маркеров, гистологическое исследование эндометрия, ультразвуковое обследование и регистрация клинических исходов ЭКО (частота имплантации, уровень бета-ХГЧ, успешные беременности). Статистический анализ был выполнен с использованием t-теста и ANOVA.

**Результаты.** В результате исследования в основной группе, получавшей глюкокортикоиды, наблюдалось снижение уровня воспалительных маркеров и улучшение состояния эндометрия. Частота имплантации эмбрионов была выше (60% против 45% в контрольной группе), а успешные клинические беременности составили 40% против 30%. Побочные эффекты были минимальны, включая незначительное повышение уровня глюкозы в крови. Терапия глюкокортикоидами показала положительное влияние на имплантацию и исходы ЭКО.

**Выводы.** Терапия глюкокортикоидами у женщин с хроническим эндометритом в рамках программы ЭКО способствует снижению воспаления в эндометрии, улучшению условий для имплантации эмбрионов и увеличению частоты успешных клинических беременностей. Результаты показали, что глюкокортикоиды могут быть эффективным методом улучшения исходов ЭКО у пациентов с хроническим эндометритом, однако необходимы дальнейшие исследования для уточнения оптимальных дозировок и длительности лечения.

#### **Список литературы:**

1. Tang et al., 2023. An update on experimental therapeutic strategies for thin endometrium.
2. Jalilvand et al., 2023. Effect of combining estradiol valerate with sildenafil in endometrial growth.
3. Castells et al., 2023. Thin endometrium randomized clinical trial using PRP.
4. Li et al., 2021. Effectiveness of PRP for thin endometrium.

## ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ЖИЗНИ ЖЕНЩИН В ПЕРИМЕНОПАУЗЕ И ИХ СВЯЗЬ С СОМАТИЧЕСКИМИ ЗАБОЛЕВАНИЯМИ

**Норбаева Н.А.**

*Ургенчский филиал Ташкентской медицинской академии*

**Актуальность исследования** психологических аспектов жизни женщин в перименопаузе обусловлена несколькими факторами, оказывающими значительное влияние на здоровье и качество жизни данной категории населения.

**Поддержание женского здоровья:** Перименопауза — это период, когда женщины сталкиваются с рядом физиологических изменений, требующих особого внимания к своему психоэмоциональному состоянию. Проблемы, возникающие в этот период, могут оказывать длительное влияние на физическое здоровье.

**Возрастная группа:** Учитывая, что предменопаузальный период затрагивает женщин в возрасте 40-55 лет, важно понимать, что на этот возрастной интервал приходится значительная часть населения, подверженная риску развития как психических, так и соматических заболеваний.

**Социальные и культурные изменения:** Современное общество предъявляет высокие требования к женщинам, включая профессиональную и семейную занятость, что может усугублять уровни стресса и повышать риск психоэмоциональных расстройств.

**Недостаток исследований:** несмотря на значительный интерес к проблемам менопаузального перехода, недостаточно уделяется внимания изучению взаимосвязи между психологическим состоянием и соматическими заболеваниями, что подчеркивает необходимость более глубокого изучения данной области.

**Цель данного исследования** заключается в том, чтобы выявить и проанализировать психологические аспекты жизни женщин в перименопаузе и их взаимосвязь с соматическими заболеваниями.

**Материалы и методы.** В исследовании использовались данные, собранные из нескольких источников:

**Опрошенные группы:** Женщины в возрасте 40-55 лет, находящиеся в перименопаузе, с различными симптомами и проявлениями.

**Клинические наблюдения:** Данные пациентов лицевых кабинетов, медицинских учреждений и специализированных гинекологических практик.

Научная литература: Результаты предыдущих исследований, касающихся психологических и соматических аспектов в жизни женщин в перименопаузе.

Для достижения поставленных целей использования несколько методов исследования:

Клинический опрос: Проведение анкетирования с использованием стандартизированных шкал для оценки уровня депрессии (например, шкала Бека) и тревожности (шкала Гамильтона).

Сравнительный анализ: Сравнение данных о психологическом состоянии и соматических заболеваниях среди женщин с различными типами симптомов (психоэмоциональные расстройства, соматические заболевания).

Статистический анализ: Применение методов статистического анализа для обработки собранных данных и выявления значимых взаимосвязей.

Квалитативный анализ: Получение и интерпретация качественных данных через фокус-группы и интервью с участниками для глубокого понимания их психоэмоционального состояния.

Все участники исследования были проинформированы о цели и методах исследования, а также дали согласие на участие, что соответствует этическим стандартам научных исследований.

**Результаты.** Исследование, проведенное среди женщин в перименопаузе, позволило выявить ряд ключевых результатов, касающихся психологических аспектов и их связи с соматическими заболеваниями.

Эмоциональная нестабильность: 70% участниц сообщили о наличии перепадов настроения, что подтверждает значительное воздействие гормональных изменений на психоэмоциональное состояние. Депрессия: 45% женщин продемонстрировали высокие уровни депрессивных симптомов по шкале Бека, что указывает на распространенность этого расстройства в данной группе. Тревожность: 65% участниц испытывали симптомы тревожного расстройства, что особенно выражено в условиях стресса и изменений в жизни.

**Связь с соматическими заболеваниями.** Анализ данных о соматическом здоровье выявил следующее: Сердечно-сосудистые заболевания: У 35% женщин с депрессивными расстройствами были диагностированы гипертонические заболевания или другие сердечно-сосудистые патологии. Метаболические нарушения: 40% участниц имели избыточную массу тела или ожирение, что связано с повышенным уровнем тревожности и депрессивных симптомов. Иммунные расстройства: 30% участниц сообщили об увеличении заболеваемости респираторными инфекциями, что может указывать на снижение иммунной функции из-за психологических стрессоров.

Определение эффективных методов психологической поддержки также показало положительные результаты:

Психотерапия: 80% участников, получавших психотерапевтическую помощь, отметили улучшение эмоционального состояния и снижение тревожности.

Физическая активность: Регулярные занятия физической активностью привели к улучшению настроения и уменьшению уровня депрессии у 60% женщин.

Образовательные программы: Участие в образовательных программах по вопросам менопаузы способствовало повышению осведомленности и улучшению адаптации к изменениям в организме.

**Выводы.** Результаты исследования подчеркивают важность комплексного подхода к лечению и поддержке женщин в перименопаузе с акцентом на их психоэмоциональное состояние и физическое здоровье. Наблюдается явная связь между психологическими расстройствами и развитием соматических заболеваний, что требует внимания медицинских специалистов и общества в целом.

#### Литературы:

1. Г. А. Ихтиярова, М. Ж. Аслонова, З. Ш. Курбанова, and Д. М. Калиматова, “Перспективы диагностики эндометриоза с учетом роли генетических факторов в патогенезе заболевания,” *РМЖ. Мать и дитя*, vol. 4, no. 1, pp. 12–16, 2021.
2. М. М. Алимова, Х. О. Мелисова, У. Д. Юлчиева, and С. М. Кошкарбаева, “ЗАМЕСТИТЕЛЬНАЯ ГОРМОНАЛЬНАЯ ТЕРАПИЯ ДЛЯ КЛИМАКТЕРИЧЕСКОГО СИНДРОМА: ОЦЕНКА ДОЛГОСРОЧНЫХ РЕЗУЛЬТАТОВ,” in *International conference on multidisciplinary science*, 2024, pp. 280–281.
3. Д. А. Базарбаева and М. А. Юсупова, “Хронический эндометрит: современные аспекты диагностики и клинические критерии,” *Проблемы современной науки и образования*, no. 8 (153), pp. 48–52, 2020.
4. А. Ю. Колосов, Н. В. Широкова, Г. В. Максимов, А. В. Радюк, and М. А. Леонова, “Оценка силы статистического влияния полиморфизма гена ESR1 на воспроизводительные признаки свиней,” *Аграрный вестник Урала*, no. 2 (144), pp. 17–19, 2016.
5. Г. А. Ихтиярова and М. Музаффарова, “РОЛЬ ДЕТЕРМИНАНТНЫХ ГЕНОВ РЕГУЛЯТОРОВ ДИСФУНКЦИИ СТЕРЕОИДНЫХ ГОРМОНОВ (CYP17A1-RS743572, CYP19A1-RS247015) В РАЗВИТИИ СПКЯ У ЖЕНЩИН С БЕСПЛОДИЕМ,” *Международный журнал научной педиатрии*, no. 7, pp. 5–11, 2022.

## POLIKOMPONENT ALLERGENLARGA SEZUVCHANLIK HOLATLARIDA ALLERGIK KASALLIKLARNING KECHISHI, ZAMONAVIY KLINIK VA MOLEKULYAR YONDASHUV

**Ollanazarova Shahnoza San'atbek qizi**  
*Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali*

**Tadqiqotning dolzarbligi.** Polikomponent allergenlarga sezuvchanlik allergik kasalliklarning rivojlanishi va ularning kechishining kompleks mexanizmlarini o'rganishga katta e'tibor qaratilmoqda. Bugungi kunda allergik kasalliklar, jumladan, atopik dermatit, bronxial astma va allergik rinit kabi kasalliklar keng tarqalgan va global miqyosda salomatlikni xavf ostiga qo'yadigan muammolarga aylangan. Biroq, bu kasalliklarning og'ir shakllari va ularning turli polikomponent allergenlarga sezuvchanlik bilan bog'liqligi haqida ilmiy bilimlar hali ham cheklangan.

Polikomponent allergenlar bir nechta allergik moddalarni o'z ichiga olgan kompleks tarkibga ega bo'lib, ularning tasiri va klinik belgilari har bir bemorda alohida kechishi mumkin. Shuning uchun, bunday allergik reaksiyalarni aniqlash va davolashda yangi yondashuvlarni ishlab chiqish juda dolzarbdir. Tadqiqotning dolzarbligi, aynan shu nuqtada, polikomponent allergenlarga sezuvchanlikni aniqlash, kasalliklarning molekulyar mexanizmlarini tushunish va zamonaviy klinik yondashuvlarni ishlab chiqishda yotadi.

Bundan tashqari, zamonaviy molekulyar usullar yordamida allergik kasalliklar rivojlanishining molekulyar mexanizmlarini tushunish va biomarkerlarni aniqlash, kasalliklarni erta aniqlash va davolash samaradorligini oshirish imkonini beradi. Buning natijasida individual davolash yondashuvlarini yaratish va bemorlar uchun samarali va xavfsiz davolash strategiyalarini ishlab chiqish mumkin bo'ladi. Shu bilan birga, polikomponent allergenlarga sezuvchanlik kasalliklarni davolashda innovatsion yondashuvlar va yangi terapiya usullarini joriy etishga yordam beradi.

**Maqsad:** Ushbu tezisda polikomponent allergenlarga sezuvchanlik holatidagi allergik kasalliklarning kechishi, klinik va immunologik tahlillari va zamonaviy molekulyar yondashuvlar keltirilgan. Tadqiqotning asosiy maqsadi bunday bemorlarda kasalliklarning og'ir shakllarini aniqlash va individual davolash yondashuvlarini takomillashtirishdir.

**Materiallar va metodlar:** Tadqiqotda polikomponent allergenlarga sezuvchan bemorlar (100 nafar bemor) ishtirok etdi. Bemorlarda allergik rinit, atopik dermatit, bronxial astma kabi kasalliklar mavjud edi. Klinika va immunologik tahlil uchun

bemorlarning IgE darajalari, IL-4, IL-5, IL-13 kabi sitokinlar va eozinofillar faolligi o'Ichandi. Molekulyar tahlil uchun PCR va Real-Time PCR metodlari qo'llanildi.

**Natijalar:** Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, polikomponent allergenlarga sezuvchan bemorlarda kasalliklarning og'ir shakllari tez-tez uchraydi. Immunologik tahlil natijalari IgE darajasi yuqori bo'lgan bemorlarda kasalliklarning surunkali kechishi va qaytalanishi kuzatildi. IL-4 va IL-5 sitokinlarining yuqori ekspressiyasi, eozinofillar faolligi va STAT6 genining faollashuvi kasallikning rivojlanishini kuchaytiradi. Molekulyar tahlil esa allergik kasalliklar va polikomponent allergenlarga sezuvchanlik o'rtasidagi bog'liqlikni yanada aniqladi.

**Zamonaviy yondashuvlar:** Polikomponent allergenlarga sezuvchanlikni davolashda zamonaviy klinik yondashuvlar va shaxsiylashtirilgan terapiya yondashuvlari muhim rol o'ynaydi. Molekulyar tahlil va biomarkerlarni aniqlash orqali davolashni individual tarzda moslashtirish imkoniyati yaratiladi. Allergik kasalliklar uchun immunoterapiya, biologik preparatlar va o'zgaruvchan davolash protokollari yanada samaraliroq yondashuvlarni taqdim etadi.

**Xulosa:** Polikomponent allergenlarga sezuvchanlik holatlarida kasalliklarning og'ir shakllari va surunkali kechishi zamonaviy molekulyar va klinik tahlillar yordamida yanada aniqroq aniqlanmoqda. Ularning kechishiga ta'sir qiluvchi immunologik va molekulyar mexanizmlarni tushunish, individual davolash yondashuvlarini ishlab chiqishda muhim ahamiyatga ega. Bu yondashuvlar nafaqat kasalliklarning samarali davolanishini ta'minlash, balki bemorlarning hayot sifatini yaxshilashga ham yordam beradi.

## РОЛЬ ВИТАМИНА D ПРИ ЭНДОКРИННОМ БЕСПЛОДИИ У ЖЕНЩИН, ПРОЖИВАЮЩИХ В ЗОНЕ ПРИАРАЛЬЯ

Алимова Махлиё Махмуд кизи  
Атаджанова Замира Юсуповна  
Ибодуллаева Мукаддас Олимбоевна

*Ургенчский филиал Ташкентской медицинской академии*

**Актуальность:** Актуальность исследования: Эндокринное бесплодие-распространенное гинекологическое заболевание с частотой встречаемости 6—10% в общей популяции, имеющее в последнее время неуклонную тенденцию к росту. Согласно современным эпидемиологическим исследованиям, дефицит витамина D очень часто сочетается с ЭБ (у 67—85% женщин с ЭБ отмечается разной степени выраженности дефицит витамина D. Дефицит витамина D, приводя к дефициту половых гормонов, способствует нарушению жирозапасающих (пролактин, инсулин, кортизол) и жиросжигающих (гормон роста, катехоламины, половые гормоны, тиреоидные гормоны) факторов.

**Цель исследования:** оценить роль витамина D в регуляции процессов стероидо- и фолликулогенеза и изучить эффективность применения препаратов витамина D на этапе планирования беременности у женщин с эндокринным бесплодием проживающих в зоне Приаралья.

**Задачи исследования:** определить уровень витамина D в крови женщин с эндокринными бесплодиями, проживающих в зоне Приаралья, определить клиническую эффективность и безопасность добавления Витамина D к стандартной терапии у пациенток с гормональным бесплодием.

**Методы:** Проведено клинико-лабораторное обследование женщин репродуктивного возраста с эндокринным бесплодием, включающее анализ гормонального профиля (ЛГ, ФСГ, пролактин, АМГ, ТТГ, кортизол), уровня витамина D, а также оценку экологических маркеров.

**Результаты:** Установлено, что у женщин Приаралья с эндокринным бесплодием чаще выявляются гипофункция щитовидной железы, гиперпролактинемия и дефицит витамина D по сравнению с контрольной группой. Выявлена корреляция между степенью экологической нагрузки и выраженностью гормональных нарушений.

**Выводы:** при оценке уровня вит D отмечено его дефицитное состояние у представительниц 1- и 2- групп по сравнению с группой контроля. Умеренный дефицит наблюдался 1-группе у 12(46,2%), 2-10(50%) и 3-группе 4(28,6%)

женщин. Выраженный дефицит выявлено у 5(19,2%) женщин с СПКЯ, 4(20%) женщин с ГПР и в контрольной группе такое состояние не выявлено. Прием препаратов витамина D в дозировках, соответствующих его статусу, у 88% женщин с бесплодием повышает уровень витамина D до нормальных значений (в среднем на 7,43 нг/мл). Полученные показатели свидетельствовали о том, что, большинство женщин имели нарушение жирового обмена и практически у всех женщин 1- группы ее содержание в крови было повышено. Комплексный подход при лечении бесплодия у женщин привело к наступлению беременности у 9(34,6%) пациенток из 1-й группы, у 11(55%) пациенток из 2-й группы и успешность вынашивания беременности. В настоящий момент все наступившие беременности протекают физиологично в 1а и 1б группах.

## REPRESENTATION OF LINGUOCULTURAL ELEMENTS IN UZBEK LANGUAGE EDUCATIONAL CORPORA

**Mustafayeva Saodat Burxanovna**

*Karshi State University*

*Scientific advisor: Doctor of Philology, Professor G.N.Tojiyeva*

**Annotation:** *This article examines the representation of linguocultural elements in Uzbek language educational corpora. It analyzes the connection between language and culture, focusing on how linguocultural elements are explained to students and how they can be applied in language learning. The role of national values, traditions, and historical elements in Uzbek language educational materials is highlighted, showing their significance in enhancing students' cultural understanding. The study emphasizes the importance of developing communicative competence by understanding linguocultural elements and their effective use in the learning process.*

**Keywords:** *linguocultural elements, educational corpora, culture, language learning, students, communicative competence, cultural understanding, linguistics, teaching methodology.*

The Uzbek language, with its rich cultural and linguistic heritage, is an important resource for not only Uzbek people but also for individuals from various nationalities who seek to learn it. Educational corpora in Uzbek language teach students not only grammar and vocabulary but also the connection between language and culture. Linguocultural elements, i.e., the unique cultural and historical traditions expressed through language, require learners to understand a specific cultural context. This article analyzes how linguocultural elements are represented in Uzbek language educational corpora and their impact on the quality of education.

For this study, several educational materials were analyzed, including textbooks, dictionaries, and linguistic research. The research primarily employed qualitative analysis and linguistic methods. The specific features of linguocultural elements in the Uzbek language educational corpora were identified. Additionally, the methodology of teaching students how to understand and apply linguocultural elements was explored. Linguocultural elements include words, phraseological units, collocations, sentences, proverbs, complex syntactic structures, texts, and so on, that reflect a part of culture. A linguocultural element has both a content and an expression plan; the expression plan consists of the units mentioned above, while the content plan is formed by the semantics of those units. Therefore, a linguocultural element differs from a concept in

that it has its own content and expression plans. For linguoculturology, the main task is to represent the folk culture in linguistic form. In his view, the concept of "linguocultural element" is useful for comparative linguistics: "Language is a cultural fact, a component of the culture we inherit, and at the same time, it is a tool. Folk culture verbalizes through language, and it is language that activates the foundational and essential concepts of culture, expressing them in the form of signs, that is, through words".

If cultural studies examine the characteristics of self-awareness in areas such as nature, society, art, history, and other social and cultural aspects, linguistics studies the worldview reflected in language as mental models of the linguistic picture of the world. The main object of study in linguoculturology is both language and culture, which are in a constant state of interaction. The word "culture" is derived from the Latin word "colere," which means "to cultivate, educate, develop, respect, worship." From the 18th century onward, the term "culture" began to be used to refer to all things that are the products of human activity. All these meanings have been preserved in the usage of the word "culture." However, originally, the word referred to "the purposeful influence of humans on nature, the modification of nature for human benefit, i.e., the cultivation of the land" (agricultural culture). Later, the term "culture" was also used to describe knowledgeable, educated, and highly refined individuals. Today, it is known that the term "culture" is used in more than 500 different variants across various fields of science and practice.

The main findings of the study include the following:

**Understanding Linguocultural Elements** – The representation of linguocultural elements in the Uzbek language not only brings learners closer to the language but also immerses them in the culture. For example, Uzbek customs, national holidays, and historical events are widely depicted in language materials.

**Cultural Representation in Educational Materials** – In textbooks, national values, words, and phrases that reflect the culture are frequently highlighted. This helps students understand how linguocultural elements function and provides opportunities for them to use these elements effectively in the learning process.

**Student Competencies** – Understanding the unique characteristics of linguocultural elements plays a crucial role in students' general cultural understanding as well as language learning. These competencies help enhance their communicative competence.

Representing linguocultural elements in Uzbek language educational corpora can pose challenges for educators since it goes beyond teaching grammar and vocabulary. Effectively conveying linguocultural elements enables students to understand the

language not only as a collection of words but also as a cultural context. To accomplish this, teachers must not only impart linguistic knowledge but also ensure that cultural knowledge is communicated to students.

Studying and understanding linguocultural elements helps students understand both the Uzbek language and culture. Effective representation of linguocultural elements in Uzbek language educational corpora deepens students' language learning experience and aids in the development of their communicative competence. Moving forward, it is necessary to develop new methodologies for enhancing this process.

Scientific research indicates that the composition of linguocultural elements is much more complex than that of linguistic units. Linguocultural elements embody linguistic, cultural, ethnopsychological, and extralinguistic factors. The structure of linguocultural elements consists of sign-meaning-concept-object. Unlike their literal and figurative meanings, they are a reflection of human culture and language.

#### **REFERENCES:**

1. *Khojaev, A. (2020). Linguocultural Elements in Uzbek Language and Their Role in Education. Tashkent: Science and Technology Publishing.*
2. *Shodmonov, M. (2019). Cultural Interconnection and Linguocultural Elements. Samarkand: Samarkand University Press.*
3. *Abdullaev, R. (2021). Methods of Teaching Uzbek Language through Cultural Knowledge. Tashkent: National University of Uzbekistan.*

## **ВЛИЯНИЕ ПОВЫШЕННОГО УРОВНЯ ШУМА В ОБЩЕСТВЕННЫХ МЕРОПРИЯТИЯХ ХОРЕЗМСКОЙ ОБЛАСТИ НА СОСТОЯНИЕ ЗДОРОВЬЯ НАСЕЛЕНИЯ**

**Абдуллаев Равшанбек Бабажонович**

**Д.м.н., профессор кафедры внутренних болезней, реабилитологии и  
народной медицины Ургенчского филиала ТМА**

**Мансурбеков Дадахон Мансурбекович**

**Ассистент кафедры внутренних болезней, реабилитологии и народной  
медицины Ургенчского филиала ТМА**

**Бахтиярова Азиза Максудбековна**

**Студентка 6 курса лечебного факультета Ургенчского филиала ТМА**

**Актуальность.** В условиях урбанизации и увеличения числа массовых мероприятий с использованием мощной звуковой аппаратуры, особенно на свадебных и иных торжественных событиях, возрастает риск хронического акустического стресса у населения. Согласно данным ВОЗ, уровень шума выше 60 дБ (Децибел) оказывает неблагоприятное воздействие на центральную нервную, сердечно-сосудистую и иммунную системы. Повышенное шумовое загрязнение становится важной проблемой общественного здравоохранения и требует научного анализа для выработки эффективных профилактических мер.

**Цель исследования.** Оценить влияние высокого уровня звукового давления на физиологические и психоэмоциональные параметры населения Хорезмской области при длительном пребывании в шумной среде, и сравнить их с показателями лиц, находившихся в акустически комфортной обстановке.

**Материалы и методы.** В исследовании участвовали 60 добровольцев в возрасте от 20 до 40 лет, разделённые на две равные группы: группа 1 (контрольная): 30 человек, регулярно посещавшие мероприятия с уровнем шума не превышающим 55 дБ; Группа 2 (экспериментальная): 30 человек, находившиеся не менее 1 часа на мероприятиях с уровнем шума свыше 65 дБ. Методы обследования включали: анкетирование на наличие головной боли, раздражительности, нарушения сна, измерение артериального давления и частоты сердечных сокращений до и после воздействия, аудиометрическое исследование слуха и оценка уровня кортизола в крови.

**Результаты.** У участников экспериментальной группы наблюдались следующие изменения по сравнению с контрольной: повышение уровня кортизола в среднем на 35% ( $p < 0.05$ ); Нарушения сна у 63% опрошенных. Субъективные жалобы на

звон в ушах у 47%. Временное повышение артериального давления у 53% (на 10–15 мм рт. ст.). Повышенная раздражительность и снижение концентрации внимания — у 70% участников. У контрольной группы такие показатели практически отсутствовали или были статистически незначимы.

**Выводы.** Воздействие шума свыше 60 дБ на общественных мероприятиях оказывает достоверно негативное влияние на психофизиологическое состояние человека. Повышаются риски развития стресс-индуцированных нарушений, ухудшается качество жизни. Необходимы внедрение санитарных норм шумового контроля, использование дозиметров в общественных местах и административные меры в случаях превышения допустимых уровней шума.

**“Shayxzoda nasriyati va tarixiy ong: tarixga badiiy yondashuv namunasi”**

***Qodirov Islomjon Iqboljon o‘g‘li***

*Toshkent Davlat Transport Universiteti talabasi*

[Qodirovislomjon316@gmail.com](mailto:Qodirovislomjon316@gmail.com)

+998910066778

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Maqsud Shayxzodaning nasriy ijodi misolida tarixiy ong va tarixga badiiy yondashuv masalalari tahlil qilinadi. Adibning tarixiy mavzularga bag‘ishlangan asarlarida milliy o‘zlik, tarixiy xotira va ozodlik g‘oyalari chuqur badiiy talqinda ifodalangan. Xususan, “Jaloliddin Manguberdi”, “Mirzo Ulug‘bek” kabi asarlarida tarixiy shaxslar obrazi orqali millatning ruhiy uyg‘onishi va mustaqillik sari intilishi badiiy yoritilgan. Maqolada Shayxzodaning tarixni voqelikdan tashqari ma‘naviy va falsafiy nuqtai nazardan talqin etish uslubi, uning milliy adabiyotda tarixiy ongni shakllantirishdagi o‘rni yoritiladi. Ushbu yondashuv Shayxzodani tarixga badiiy yondashuvning yorqin namunasi aylantirgan.

**Kalit so‘zlar.** ta‘lim, tarbiya, qahramonlik, bag‘rikenglik, totuvlik, vatan, vatanparvarlik, sh‘riyat, Maqsud Shayxzoda.

O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan tub islohatlarning diqqat markazida, shubhasiz, yoshlar masalasi va muammosi turadi. Aynan shuning uchun ham yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashdek muhim maqsad milliy ta‘lim tizimi oldidagi eng asosiy vazifalardan biri hisoblanadi. Shu o‘rinda, albatta, yoshlarni mustaqil fikr va dunyoqarash, zamonaviy bilim va tafakkur, eng asosiysi, o‘z ona vatanini sevishni, o‘z ona tilisi va chet tillarida to‘g‘ri va ravon so‘zlashni o‘rgatish har bir pedagog uchun asosiy vazifa sanaladi.

Bugungi kunda adabiyot o‘qitishning metodologik asoslarini ishlab chiqishda shaxsga yo‘naltirilgan ta‘lim nazariyasiga tayanilmoqda. Yo‘qotilgan urf-odatlarini tiklash, har bir etnik guruh madaniyati o‘ziga xosligini anglash davrimizning ustuvor vazifalaridir. Davlat yosh avlodda bag‘rikenglik va o‘zaro hurmatni tarbiyalashga intiladi. Har qanday davlatning ustuvor vazifasi vatanparvarlik tarbiyasidir. Shaxsiy intilishlardan tashqari, insonga umuminsoniy qadriyatlar kerak va ulardan biri vatanparvarlik tuyg‘usi, bu vatanparvarlik, o‘z Vatani muhabbat, bu barcha odamlarni yagona jamiyatga bog‘laydigan axloqiy xususiyatdir.

Vatani muhabbat bilan birlashgan jamiyatgina davlatni yaxlit va obod qilishi mumkin. Vatanparvarlik tarbiyasi bir necha bosqichlardan o‘tadi: oilangizga bo‘lgan

muhabbatdan Vatanga muhabbat. Vatanga muhabbat – vatanparvarlikning eng yuqori darajasi.

So‘nggi yillarda o‘quvchilarni badiiy asarni tahlil qilishga o‘rgatish masalasiga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Bu masala uzoq yillardan buyon olimlarning e‘tiborini o‘ziga jalb qilib kelmoqda. Shu o‘rinda shoir, dramaturg, tarjimon, olim, pedagog Maqsud Shayxzodaning ijodi sof muhabbatga, odamlar o‘rtasidagi munosabatlarga, do‘stona aloqalarga, beg‘ubor fikrlarga va vatanparvarlikning eng yuqori tuyg‘ulariga asoslangan. Maqsud Shayxzodaning she‘riyati har bir satrida zamonaviylik bilan chambarchas bog‘liq uning fuqarolik lirikasi juda dolzarbdir. Maqsud Shayxzodaning she‘rlari mazmunan chuqur, ma‘no jihatidan juda mantiqiy. She‘riyatining asosini qahramonlik, psixologik, dramatik jarayonlar tashkil qiladi. Uning 437 sahifadan iborat “25 yillik bahs” kitobida ham vatanga bo‘lgan lirik ijod namunalari aks etgan. Hozirgi kunda o‘tmish ajdodlarimizning urf - odatlari va yutuqlarini qayta tiklash uchun sharoit yaratmoqdamiz. Bu yoshlarga bag‘rikenglik, tinchlik va barqarorlikni ta‘minlash omili sifatida xizmat qiladi. Zamonaviy yoshlar orasida vatanparvarlikni shakllantirishning ajralmas qismi bu Ulug‘ Vatan urushi qahramonlari misolida ta‘lim berishdir. Ikkinchi jahon urushi yillarida Maqsud Shayxzoda bir nechta she‘riy to‘plamlarini nashr ettirdi: “Jang nima uchun?”, “Jang va qo‘shiq”, “Yurak gapiradi”, “Momaqaldir oq bilan tug‘ilgan” kabi. Shu bilan bir qatorda, Yo‘ldosh Oxunboboyev haqida “O‘n birinchi”, “Zhenya”, “Uchinchi o‘g‘il”, “Oqsoqol” she‘rlarini yozgan. Tarixiy voqealarni bilish zamonaviy yoshlar orasida vatanparvarlik tuyg‘ularini shakllantirishga asos yaratadi. Ulug‘ Vatan urushi va vatanparvarlik mavzusi Maqsud Shayxzoda ijodida o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan, chunki bu voqea har bir oilaga ta‘sir ko‘rsatgan. G‘alaba kuni har yili fashist bosqinchilariga qarshi kurashgan mamlakatlarda keng nishonlanadi. Minglab yoshlar jang maydonida halok bo‘lishdi. Ular g‘alaba qozonish g‘oyasidan ilhomlangan. Ular bizning gullab yashnashimiz uchun yoshlarimiz va davlatimiz uchun jonlarini fido qilganlar. Har bir inson erkin mamlakatda chuqur nafas olayotgani uchun minnatdor bo‘lishi kerak.

Shuni ta‘kidlash kerakki, vatanparvarlik ko‘plab omillar ta‘siri ostida shakllanadigan shaxsning ma‘naviyati, fuqaroligi va ijtimoiy faoliyati birligida namoyon bo‘ladi. Bunday holda, asosiy rol ta‘lim egallaydi. Axir, u har doim shaxsning shakllanishiga va natijada butun jamiyat farovonligiga hal qiluvchi ta‘sir ko‘rsatadi. Zamonaviy avlodni vatanparvarlik tarbiyasi muammolarini hal qilishda yoshlarning o‘zlari ishtirok etishlari, Vatan tushunchasi ahamiyatini anglab, uning madaniyati, urf-odatlari va tarixini sevish, bilish va hurmat qilishlari kerak. Ma‘lumki, vatanparvarlik tuyg‘usi mazmunan ko‘p qirrali. Bu nafaqat Vatanga bo‘lgan muhabbat, balki o‘z tug‘ilgan

joyiga bo'lgan muhabbat va o'z xalqi uchun g'ururlanish, o'z mamlakatining boyligini saqlash va rivojlantirish istagidir.

Shu ma'noda, Uyg' Vatan urushi davrida Maqsud Shayxzoda o'zbek folklori va mumtoz she'riyatining eng yaxshi she'riy an'alarini zamonaviy adabiyot yutuqlari bilan birlashtirgan. Maqsud Shayxzoda mumtoz Sharq she'riyatining mumtoz janrlarida asarlar yozadi. Xususan, vatanparvarlik mavzusi "Toshkent haqida she'r" ("Toshkentnoma", "Chorak asr divan" tanlangan asarlar to'plami, "Yillar va yo'llar" lirik to'plami, "Istiqbol", "Lirik va falsafiy asarlar" da ko'tarilgan. Maqsud Shayxzodaning vatanparvarlik tarbiyasi mavzusi "Jaloliddin Manguberdi" tragediyasida o'z yurtining ozodligi va mustaqilligi uchun mo'g'ul istilochilariga qarshi kurashgan so'nggi Xorazm shohining jangovar jasoratini tarixan aniq va haqqoniy tasvirlagan. 1988-yilda "Jaloliddin Manguberdi" birinchi marta o'zbek tilida yozuvchining "Boqiy dunyo" degan kitobida to'la bosilib chiqarildi. Odamlar qalbida vatanparvarlik tuyg'usini jo'sh urdiruvchi, qahramonlik ruhida bu asar bugun ham o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q. Oradan ko'p yillar o'tsa ham Shayxzoda asarlari o'z kuch-qudratini namoyon etib kelmoqda. Maqsud Shayxzodaning xalqimiz tarixiga, jumladan, Jaloliddin Manguberdi taqdiri va kurashiga odilona yondoshganligini, haqiqatni himoya qilganligini asarni o'qish jarayonida tusnunib olamiz. "Jaloliddin Manguberdi" asari yoshlarda o'zligini anglash, millati bilan g'ururlanish ruhini uyg'otadi. Shuning uchun ham bu asarlar Shayxzodaning yozuvchilik shuuri va ijodkorlik zehning o'tkirligini yana bir bor isbotladi. Maqsud Shayxzodaning o'zbek adabiyotiga qo'shgan yana bir ulkan hissasi "Mirzo Ulug'bek" tragediyasidir. Tragediya 1964 yili yozildi, o'sha yili bu asar Hamza teatri sahnasida qo'yildi, keyinchalik uning asosida kinofilm yaratildi. Maqsud Shayxzodaning yuqorida tilga olingan dramatik asarlari va boshqa bir qator ijod namunalarini o'qir ekanmiz, ularning har birida yuksak vatanparvarlik tuyg'ularining mahorat bilan ifodalanganligini guvohi bo'lamiz. Xalqning tarixiy xotirasi avloddan avlodga o'tib boradi. O'tmishda yaratilgan ma'naviy va madaniy qadriyatlar zamonaviy jamiyat mulkiga aylanadi. Buning yorqin namunasi Maqsud Shayxzodaning mana shunday vatanparvarlik va Vatanga muhabbat ruhida yozilgan asarlaridir.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev o'z nutqlarida ta'kidlaganidek: "Hozirgi paytda yoshlar o'rtasida barqaror fuqarolik pozitsiyasini shakllantirmasdan, tashabbuskorlikni, mustaqillikni rivojlantirmasdan va o'z mamlakati manfaatlarini himoya qilishga tayyor bo'lmasdan iloj yo'q". Ta'limni rivojlantirishning hozirgi bosqichida yoshlarni tarbiyalash jarayonining muhim vazifalaridan biri bu talabalarda bebaho durdonalarimiz orqali vatanparvarlik

tuygʻusini shakllantirish va rivojlantirishdir, chunki bu tuygʻusiz chinakam barkamol insonni tarbiyalash haqida gapirish mumkin emas”.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Sh. Mirziyayev. Tanqidiy tahlil, qatʻiy tartib va shaxsiy javobgarlik har bir amaldorning kundalik faoliyatining eng muhim kun tartibida boʻlishi kerak. Toshkent, Oʻzbekiston jamoat uyi, 2017 yil
2. A.A. Bobayev, Nozim Hikmat. M.: Nauka, 1975 yil.
3. Maqsud Shayxzoda. Literature.uz. Arxivdan arxivlandi 2013 yil 26 aprel.

## KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNING INVESTITSIYA FAOLIYATINI FAOLLASHTIRISHGA TA’SIRI

*Xolmirzayeva Gulrux Akbarovna*

*Samarqand Iqtisodiyot va Servis Instituti*

*Bank-Moliya xizmatlari fakulteti*

*Innovatsiyalar kafedrasi assistenti*

*Azimov Shamsiddin Dilshod o’g’li*

*Samarqand Iqtisodiyot va Servis Instituti*

*Bank ishi va auditi yo’nalishi talabalari*

*Gmail:Shamsiddinazimov2@gmail.com*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Bugungi O`zbekiston kichik biznes va xususiy tadbirkorlikga xorijiy investitsiyalarni qay yo`sinda jalb qilayotgani va rivojlangan mamlakatlar bilan aloqalari batafsil yoritilgan. Shuningdek, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning iqtisodiy jarayonlardagi o`rni va ularning investitsiya faoliyatiga ko`rsatadigan ta`siri tahlil qilingan. Kichik biznes subyektlarining investitsion faolligini oshirish orqali milliy iqtisodiyotning barqaror o`shishini ta`minlash muhimligi yoritilgan. Shuningdek, xorijiy tajriba asosida ushbu sohaga sarmoya jalb qilish mexanizmlari va rag`batlantiruvchi omillar tahlil qilinadi.

**Kalit so`zlar:** Kichik biznes, xususiy tadbirkorlik, investitsiya, iqtisodiy rivojlanish, sarmoya, moliyaviy qo`llab-quvvatlash, investitsiya, yakka investor, kichik biznes, tadbirkorlik, qimmatli qog`ozlar strategik aloqa.

**Kirish.** Rivojlanib borayotgan va ayni damda demokratlashayotgan Yangi O`zbekistonda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning tashabbus va takliflari bilan bugungi kunda tadbirkorlarga katta imkoniyatlar yaratib berilayotgani hech kimga sir emas. Shuningdek, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishda xorijiy investitsiyalarning rolini ko`rib chiqamiz. Bozor munosabatlari sharoitida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik mamlakat iqtisodiyotining muhim tarkibiy qismiga aylanmoqda. Ular nafaqat yangi ish o`rinlarini yaratish, balki hududiy iqtisodiy faollikni oshirish, innovatsion g`oyalarni amalga oshirish hamda raqobatbardoshlikni ta`minlashda muhim rol o`ynaydi. Shu jihatdan, ushbu subyektlarning investitsiya faoliyatini faollashtirish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etadi. O`zbekiston Respublikasida investitsiya to`g`risidagi qonuniy hujjatlar 1998 – yilda qabul qilingan bo`lib shu davrgacha zamonga moslashtirib ancha o`zgartirish va qo`shimchalar qabul qilingan. O`zbekiston Respublikasida “Investitsiya to`g`risida”gi qonunda ko`rsatilishicha, investitsiya bu – bu iqtisodiy samara (daromad, foyda) olish yoki

ijobiy natijaga erishish uchun sarflanadigan pul mablag`lari, banklarga qo`yiladigan omonatlar, qimmatli qog`ozlar (aksiya yoki obligatsiyalar) texnologiyalar, mashinalar asbob – uskunalar, litsenziyalar va samara beradigan boshqa har qanday boyliklar hisoblanadi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning iqtisodiy ahamiyati shundaki, Rossiyalik iqtisodchi N.I. Voronovanning ta`kidlashicha, kichik biznes mamlakat iqtisodiy salohiyatini kengaytirishda, innovatsiyalarni joriy etishda va jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni ta`minlashda yetakchi omil hisoblanadi. Ularning moslashuvchanligi va tezkor qaror qabul qilish qobiliyati ularni iqtisodiy o`zgarishlarga chidamli qiladi. Investitsiya faoliyatining xususiyatlari, Investitsiya – bu moliyaviy va moddiy resurslarni uzoq muddatli daromad olish maqsadida iqtisodiyot sohaslariga yo`naltirishdir. Kichik biznes investitsiyalarni jalb qilishda ko`plab to`siqlarga duch keladi: moliyaviy yetishmovchilik, bank kreditlariga cheklangan kirish, yuqori foiz stavkalari, kafolatlar talabining murakkabligi. Xorijiy tajribalarda misol uchun, Germaniyada kichik tadbirkorlikni qo`llab-quvvatlovchi Investitionsbank Berlin kabi moliyaviy institutlar mavjud. Ular past foizli kreditlar, grantlar, garovsiz moliyalashtirish imkoniyatlari bilan kichik biznesni rag`batlantiradi. Shuningdek, Rossiyada “МСП Банк” kichik va o`rta biznes subyektlariga maxsus kredit liniyalari orqali investitsion loyihalarni amalga oshirishda yordam beradi.

O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 24-noyabrdagi “Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni qo`llab-quvvatlash chora-tadbirlari to`g`risida”gi farmoniga muvofiq, ushbu sohaga investitsiyalarni jalb qilishni rag`batlantirish maqsadida soliq imtiyozlari, kredit kafolatlari va subsidiyalar joriy etildi.

Investitsiyalar tavakkalchilik darajasi bo`yicha yuqori tavakkalli va past tavakkalli investitsiyalarga ajratiladi. Moliya sohasida tavakkalchilik deganda investitsiyalardan olinadigan foydaning mutlaq yoki nisbiy miqdorda kutilganidan ancha kam bo`lishi tushuniladi. Boshqacha aytganda, “tavakkalchilik” atamasi — bu investitsiyadan kutilmagan natijani olish ehtimolini anglatadi. Qo`yilma mablag`lar bo`yicha foydaning mutlaq yoki nisbiy miqdorlarining yoyilishi qanchalik keng bo`lsa, tavakkalchilik darajasi shunchalik yuqori bo`ladi.

Davlatda sifatli kadrlarni tayyorlash ham muhim ahamiyatga ega. Sifatli kadrlar sonining ortishi davlatning rivojlanish bosqichlariga tezroq o`tishiga va u bosqichlardan muvaffaqiyatli chiqishiga yordam beradi. Davlatga qancha ko`p investitsiya kirib kelsa, yalpi ichki mahsulot hajmi, shuningdek eksport va import ko`rsatkichlari ham ortadi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalari ilmiy-texnik taraqqiyot sharoitida sanoatning yetakchi sohalarini yangi texnologiyalarga o'tkazishda o'z o'rnini tobora mustahkamlab bormoqda. Ular yangi g'oyalarni ilgari surish, ishlab chiqarishni takomillashtirish va zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy qilish orqali ish jarayonini ta'minlovchi butun tizimning asosiy bog'lovchi bo'g'iniga aylanmoqda.

Bugungi kunga kelib, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari mamlakatimiz iqtisodiyotining barcha jabhalarida — mashinasozlik mahsulotlari ishlab chiqarish, xalq iste'moli mollari, qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish kabi sohalarda faoliyat yuritmoqda.

**Xulosa.** Xulosa sifatida shuni aytishimiz mumkinki, bugungi kundagi rivojlangan Davlatlarning barchasini davlatga katta kompaniyalar tomonidan kiritilgan katta investitsiyalar tomonidan shu darajaga kelgan. Misol uchun Xitoyni oladigan bo'lsak: Samsung, Windows, Apple va boshqa yirik kompaniyalarning investitsiyalari va ularning davlatda korxonalar va zavodlarini ochishi boy davlatning iqtisodiy o'sishiga ham sabab bo'lgan. Bugun O'zbekiston ham o'sha tajribalarni o'rganish maqsadida Xitoy, Turkiya va boshqa yetakchi rivojlangan mamlakatlar bilan har tomonlama strategik munosabatlarni olib bormoqda.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning investitsiya faoliyatini faollashtirish — bu mamlakat iqtisodiy barqarorligini ta'minlash, raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish va yangi ish o'rinlari yaratishning muhim omilidir. Ushbu subyektlarni qo'llab-quvvatlash uchun davlat tomonidan soddalashtirilgan kreditlar, soliq imtiyozlari va xorijiy sarmoyalarni jalb etishga qaratilgan siyosat yuritilishi lozim.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. O'zbekiston Respublikasining «Tadbirkorlik va tadbirkorlik faoliyati erkinligini kafolatlari to'g'risida»gi onuni. 2000 yil 25 may.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Mikrofirmalar va kichik korxonalarini Rivojlantirishni rag'batlantirish borasidagi qo'shimcha chora tadbirlar to'g'risida»gi 2005 yil 20 iyundagi PF – 3620- sonli Farmoni. Xabarnoma jurnali, 2005 yil, 2- son.
3. Qosimova M.S., Xodiyev B.Yu., Samadov A.N., Muxitdinova U.S. Kichik biznesni Boshqarish. O'quv qo'llanma. —T.: O'qituvchi, 2003.
4. Муминов, Р. А., Азаматов, З. Т., Акбарова, Н. А., Тукфатуллин, О. Ф., & Хусаинов, И. А. (2014). Влияние голографических покрытий на эффективность кремниевых фотопреобразователей. Международный журнал Гелиотехника, (3), 6-8.
5. Azamatov, Z. T., Akbarova, N. A., Kulagin, I. Y. A., Gaponov, V. E., Redkorechev, V. I., & Isayev, A. M. (2017). Digital holographic interferometry in

- physical nanomeasurements. Наносистемы: физика, химия, математика, 8(1), 79-84.
6. AZAMATOV, Z., Akbarova, N. A., Redkorechev, V. I., & Khusainov, I. A. (2014). The hybrid holographic concentrator of solar energy. Uzbekiston Fizika Zhurnali, 16(5), 347-352.
  7. Lapusta M.G. Predrinitatelstvo. –M.: INFRA – M, 2004.
  8. Воронова Н.И. «Малый бизнес в современной экономике». – Москва: Инфра-М, 2021.
  9. Поддубная Л.М. «Инвестиционная деятельность субъектов малого предпринимательства». – Санкт-Петербург: Питер, 2020.
  10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni, 2022-yil 24-noyabr.
  11. Dasturiy hujjatlar: [www.lex.uz](http://www.lex.uz), [www.stat.uz](http://www.stat.uz)
  12. “МСП Банк” rasmiy veb-sayti – [www.mspbank.ru](http://www.mspbank.ru)
  13. Investitionsbank Berlin (IBB) rasmiy sayti – [www.ibb.de](http://www.ibb.de)

**“Shayxzoda dramaturgiyasi: insoniyat, adolat va haqiqat izlab”  
Qodirov Islomjon Iqboljon o‘g‘li  
(Toshkent davlat transport universiteti)**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Maqsud Shayxzodaning dramaturgiya sohasidagi ijodi, uning asarlarida insoniyat taqdiri, adolat va haqiqat g‘oyalari qanday badiiy ifoda topgani tahlil qilinadi. Shayxzoda o‘z dramalarida tarixiy va zamonaviy qahramonlar obrazini yaratish orqali inson erki, haqiqat izlash va ijtimoiy adolat kabi abadiy mavzularni ko‘taradi. Maqolada uning dramaturgik uslubi, syujet qurish mahorati va falsafiy teranligi o‘rganiladi. Shayxzoda dramaturgiyasi milliy va umuminsoniy qadriyatlarni uyg‘unlashtirgan holda, o‘zbek adabiyoti tarixida muhim o‘rin egallagan.

**Abstract:** This article analyzes the work of Maqsud Shaikhzoda in the field of dramaturgy, how the ideas of the fate of humanity, justice and truth are artistically expressed in his works. Shaikhzoda raises eternal themes such as human freedom, the search for truth and social justice by creating images of historical and modern heroes in his dramas. The article studies his dramatic style, plot construction skills and philosophical depth. Shaikhzoda's dramaturgy, combining national and universal values, has occupied an important place in the history of Uzbek literature.

**Kalit so‘zlar:** Insoniyat tarixi, insoniyat tarixi, umuminsoniy g‘oyalar, “Jaloliddin Manguberdi”, “Mirzo Ulug‘bek”, dramaturgiya uslubi.

**Keywords:** History of mankind, history of humanity, universal ideas, “Jaloliddin Manguberdi”, “Mirzo Ulug‘bek”, dramaturgy style.

### **Kirish**

Maqsud Shayxzoda o‘zining serqirra ijodiy faoliyatida dramaturgiya janriga alohida e‘tibor qaratdi. U yaratgan sahna asarlari nafaqat o‘z davrining, balki butun insoniyat tarixining dolzarb masalalarini ko‘taradi. Shayxzoda dramalarida inson qadri, adolat uchun kurash va haqiqatni izlash g‘oyalari markaziy o‘rin egallaydi. Uning dramaturgiyasi milliy ruh bilan sug‘orilgan bo‘lsa-da, undagi umuminsoniy g‘oyalar ham har bir davr o‘quvchisi va tomoshabinini o‘ziga jalb etadi.

### **Tarixiy mavzular va inson taqdiri**

Shayxzodaning tarixiy mavzudagi dramalari, xususan, “Jaloliddin Manguberdi”, “Mirzo Ulug‘bek” kabi asarlarida tarixiy shaxslar obrazi orqali insoniyat erkinligi, milliy g‘urur va haqiqat uchun kurash motivlari yuksak badiiy ifoda topgan. U tarixiy obrazlarni yaratishda ularni faqat tarixiy shaxs sifatida emas, balki umumiy insoniy qadr-qimmatni ifodalovchi ramzlar sifatida ko‘rsatdi.

Masalan, “Jaloliddin Manguberdi” dramasi vatan va ozodlik uchun jonini fido qilgan qahramon obrazi orqali Shayxzoda o‘z zamonasining milliy uyg‘onish ruhini ifodalagan. Bu asarda qahramonning adolatsizlik va bosqinchilikka qarshi kurashi orqali haqiqat va erkinlik g‘oyasi ilgari suriladi.

### **Zamonaviy mavzular va ijtimoiy adolat**

Shayxzoda faqat tarixiy mavzularga emas, zamonaviy hayot voqealariga ham chuqur e‘tibor qaratdi. Uning zamonaviy mavzudagi dramalarida insoniy orzu-umidlar, ijtimoiy adolatsizliklarga qarshi kurash, axloqiy tanlov va ma‘naviy kamolot masalalari keng yoritilgan.

Uning dramalarida qahramonlar ko‘pincha murakkab ichki ziddiyatlarga duch keladi: adolat va haqiqat uchun kurashishmi yoki zamon oqimiga taslim bo‘lishmi? Shayxzoda har doim o‘z asarlarida adolatni tanlagan insonni, haqiqat izidan yurgan qahramonni ulug‘laydi.

### **Dramaturgiya uslubi va sahna san‘ati**

Shayxzodaning dramaturgiya uslubi o‘ziga xos: u sahnadagi harakatni chuqur falsafiy tafakkur bilan boyitadi. Uning dramalarida syujetning rivojlanishi ichki dramalizmga, obrazlararo keskin qarama-qarshilikka asoslangan. Dialoglar falsafiy teranligi, badiiy mahorati va tabiiyligi bilan ajralib turadi.

Shayxzoda dramaturgiyasida sahna tasvirlari faqat tashqi voqelikni emas, balki qahramonlarning ichki dunyosini ham ochib beradi. Har bir obraz o‘z falsafasiga ega bo‘lib, ular o‘zaro to‘qnashuvda hayotning murakkabliklari va insoniy qadriyatlar bahs etiladi.

### **Xulosa**

Maqsud Shayxzoda o‘zining dramaturgik asarlari orqali insoniyatning abadiy orzusi — adolat va haqiqat izlash yo‘lini badiiy ifodalagan buyuk adibdir. Uning dramalarida milliy ruh va umuminsoniy g‘oyalar uyg‘un holda ifodalangan bo‘lib, ular bugungi kunda ham o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan. Shayxzoda dramaturgiyasi o‘zbek adabiyoti tarixida, ayniqsa sahna san‘ati rivojida yuksak o‘rin egallab, yosh avlodni insoniylik, vatanparvarlik va haqiqatparvarlik ruhida tarbiyalashga xizmat qiladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. MAQSUD SHAYXZODA BUYUK TARJIMON. Tursinaliyev Dilshodjon Murodjonovich, Qodirov Islomjon Iqboljon o‘g‘li.
2. Mamurova, F. I. (2021, May). ARTIST OF UZBEKISTAN MAKSUD SHEIKHZADE. In E Conference Globe (pp. 176-178).
3. MAQSUD SHAYXZODANING “TOSHKENTNOMA”-SHUKRONALIK DOSTONI Mamurova Feruza Islomovna, Qodirov Islomjon Iqboljon o‘g‘li.

4. MAQSUD SHAYXZODA HAYOTI VA IJODINING O‘ZBEK MILLIY ADABIYOTIDAGI TUTGAN O‘RNI. Toshkent davlat transport universiteti Mamurova Feruza Islamovna, Islomjon Iqboljon o‘g‘li Qodirov.
5. Zokirov M. Maqsud Shayxzoda. Adabiy tanqidiy ocherk, T., 1969 y.
6. Yusuf Shomansur. Shayxzoda — bunyodkor shoir, T., 1972 y. - 179 b.
7. G'afurov I., O'rtoq shoir. Maksud Shayxzoda ijodiyoti, T., 1975 y. - 215 b.

## **Uy-ro'zg'or buyumlari bilan bog'liq urf-odatlar**

To'rayeva Shaxlo

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Tarix fakulteti

2- bosqich talabasi

[shaxlotorayeva2704@gmail.com](mailto:shaxlotorayeva2704@gmail.com)

### **ANNOTATSIYA**

Har bir xalqning moddiy va ma'naviy madaniyati uning kundalik turmush tarzi va uy-ro'zg'or buyumlarida o'z aksini topadi. Arxeologik yodgorliklarda topilgan uy-ro'zg'or buyumlar nafaqat amaliy ahamiyatga ega bo'lib, balki diniy va marosimiy urf-odatlar bilan bog'liq bo'lgan. Ushbu maqolada uy-ro'zg'or buyumlari bilan bog'liq urf-odatlar haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** Uy-ro'zg'or buyumlari, obdasta, tandir, xurma, kuv, ko'za, tevana, bigiz, angishvona, pichoq, qoshiq, Darveshona, qozon.

### **АННОТАЦИЯ**

Каждая нация отражает свою материальную и духовную культуру в своем повседневном образе жизни и предметах быта. Предметы быта, найденные в археологических памятниках, имеют не только практическое значение, но также связаны с религиозными и обрядовыми традициями. В данной статье речь пойдет о народных обычаях, связанных с предметами быта.

**Ключевые слова:** Предметы быта: обдаста, тандыр, хурма, kuv, коза, тевана, бигиз, ангишвона, нож, лошка, дарवेशона, казан.

### **ABSTRACT**

The material and spiritual culture of each nation is reflected in its daily lifestyle and household items. The household items found in archaeological monuments not only have practical significance but are also associated with religious and ceremonial customs. This article discusses the customs related to household items.

**Keywords:** Household items: pitcher, tandoori, xurma, jug, urn, tevana, awl, thimble, knife, spoon, darveshona, pot.

**Kirish.** Uy-ro'zg'or buyumlari, asosan, turmushda ishlatiladigan, uy ishlarini amalga oshirishda yordam beradigan va odamlarning kundalik hayotini osonlashtiradigan vositalardir. Ular maishiy texnikalar, oshxona anjomlari, mebellar, kiyim-kechaklar va boshqa kundalik ehtiyojlar uchun zarur bo'lgan buyumlardan iborat. Har bir xalqning o'ziga xos ro'zg'or buyumlari bor va ular milliy urf-odatlar va an'analarga bog'liq holda o'zgaradi. Turli davrlarga oid qazilmalarda topilgan maishiy buyumlar qadimgi odamlarda qanday turmush tarzi bo'lganini va ularning madaniyatini

anglashda muhim manba hisoblanadi. Kulolchilik buyumlari – ibtidoiy jamiyat davridan boshlab, oshxona anjomlari shakli va uslubiga qarab turli xalqlarning hayot, turmush-tarzida o‘z aksini topgan. Metall buyumlar – temir va jezdan yasalgan idishlar, pichoqlar, o‘roq kabi buyumlar ijtimoiy tabaqalanish va texnologik taraqqiyot haqida ma’lumot beradi. Mebel va uy jihozlari – qadimiy uylarning ichki tuzilishi va ro‘zg‘or anjomlari orqali oilaviy hayot va ma’rosimlarning o‘rni aniqlanadi. Uy-ro‘zg‘or buyumlari faqat amaliy maqsadda emas, balki ramziy ma’noda ham ishlatilgan. Idishlar va taom madaniyati – qadimda idish-tovoq shakllari ma’rosim va diniy e’tiqodlar bilan bog‘liq bo‘lgan.

**Asosiy qism.** O‘zbek xalqi ro‘zg‘or buyumlari orasida **obdasta** (ba’zi hududlarda *oftoba, qadimda chovgum*) alohida ahamiyat kasb etadi. Obdasta – forscha so‘z bo‘lib, qo‘l (yuviladigan suv) ma’nosini ifodalaydi. Obdasta xalqimiz kundalik hayotida har kuni ishlatiladigan rozg‘or buyumi hisoblanadi.

O‘zbek xalqi hayotini **tandirsiz** tasavvur qilish qiyin. Tandir ham har bir xalq uchun mental xususiyat kasb etadi. Tandirning paydo bo‘lishi va undan foydalanishning boshlanishi miloddan avvalgi II ming yillikka bronza davriga borib yetadi. Bronza davridan boshlab insonlar tandirdan foydalanib, undan kundalik ehtiyoji uchun kerak bo‘ladigan non va boshqa narsalarni pishirgan. O‘zbek xalqi madaniyatida tandir qadimdan xosiyatli hisoblanib, nopok, g‘usl qilmasdan tandir-o‘choq yoniga borish hamda ular bilan bog‘liq anjomlarni qo‘lga olish gunoh hisoblangan. Bundan tashqari tandir-o‘choqlarning ustiga chiqish uvol man etilgan. O‘zbek xalqining lisoniy ongida tandir va unga yondosh bo‘lgan o‘choq haqida gap ketganda, tandirlar qadimdan ozodalik va halollik ramzi sifatida qaralib, momolarimiz yoshlarni doimo tandir-o‘choqlarni ulug‘lashga, qadrlashga va doimo toza saqlashga o‘rgatganlar. Xalqimiz orasida tandir-o‘choqqa juda e’tiqod bilan yondashgan. Yoshi ulug‘ insonlarning aytishicha, tandir-o‘choqning o‘z piri bo‘lib, eskirgan tandirni buzayotganda ”Hazrati Mirkulol bobo”ning ruhlariga atab ikkita non sindirilgan. Yoshi ulug‘lar tandirni ”barchani lol qoldirgan mulk”, degan ma’noda ”mulkulol” deb atashgan. Yangi qo‘yilgan tandir yorilib ketmasligi uchun, unga dastlab olov yoqayotgan kishi og‘zini ochmasligi kerak bo‘lgan. Tandirda yopilgan nonlar yaxshi chiqishi uchun bir kishi olov yoqqan, birdaniga ikki kishi o‘tin qalamagan. Voha qarluqlarida yana shunday odat ham bo‘lgan. Yangi tushgan kelin tandirga moy qo‘ygan. Buning zamirida esa xonadonimiz rizqli-nasibali bo‘lsin, o‘chog‘ining olovi o‘chmasin, degan ezgu niyat yotgan. Olov bilan bog‘liq afsonalar ham mavjud bo‘lgan. Qadimgi turkiy xalqlar olovni ayol sifatidatasavvur qilganlar va muqaddas ilohni ”O‘t ona” deb ataganlar. Bu an’ana bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmay kelmoqda. Tandirlarning tayyorlanishi va qo‘yilishi va

joylashuvi o‘zbek xalqida hududiy nuqtayi nazardan turli xil. Jahon xalqlarida non tayyorlash bilan bog‘liq o‘ziga xos an‘ananing shakllanishida tandirning o‘rni beqiyos.<sup>1</sup>

O‘zbek xalq hunarmandchiligida sopol buyumlar yasash qadimdan mavjud bo‘lib, bugungi kunda ham ushbu an‘ana davom etib kelmoqda. Sopol buyumlar orasida **xum** yasash va undan foydalanish asrlar osha davom etib kelmoqda. Xum biror suyuqlik, don va shu kabilarni saqlash uchun turli kattalikda yasaladigan, og‘zi torroq sopol idishni anglatadi. Suyuqliklarni sifatli saqlashda xumdan boshqa xalqimiz orasida *xurma*, *kuv* kabi ro‘zg‘or buyumlari ham mavjud. Hozirda xurma va kuv kabi buyumlar oz miqdorda bo‘lsa-da mavjud. **Xurma**– qatiq ivitish, sut solib qo‘yish uchun ishlatiladiga sopol idish hisoblanadi.<sup>2</sup>

**Kuv** esa sutni chayqatib, yog‘ini olish uchun ishlatiladigan, silindr shaklidagi uzun yog‘och idish va uning uchi yo‘g‘onlashgan tayoqsimon sopi tushuniladi. Kuv o‘zbek xalqi madaniy hayotida bevosita chorvachilik bilan bog‘liq holda asosiy ro‘zg‘or buyumlaridan biri hisoblangan. Kuvda sutni qayta ishlash va yog‘ini olish bilan bog‘liq jarayon mavjud bo‘lib, buni “kuv pishirish” birikmasi orqali ifodalashadi.

3

Ko‘za – sopolidan, loydan tayyorlangan. Dehqonlar yoz payti dalaga chiqanlarida ichimlik suvini normal holatda saqlaganligi uchun, suvni mazkur asbob ichiga solib qo‘yadi. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da “suv solish, tashish uchun ishlatiladigan qorni keng, bo‘g‘zi ingichka, bir tomonida dastasi bor idish” deb izohlangan. Juda chekka qishloqlarda bu atama eskirmagan, hamon qo‘llanilib kelinmoqda.

Tikish tarixi 20 ming yil oldingi davrga borib taqaladi. Qadimgi odamlar bigizning qadimgi ko‘rinishida hayvon terisini teshib, ularning paylarini teshiklaridan o‘tkazib, o‘zlariga “kiyim” tikkanlar. Toshlardan, hayvonlarning suyaklaridan yoki shoxlaridan yasalgan, dastlabki teshikli ignalar zamonaviy G‘arbiy Yevropa va Markaziy Osiyo hududlarida 17 ming yil ilgari topilgan. Afrikada palma barglarining paylariga bog‘langan, o‘simliklardan qilingan iplar igna sifatida xizmat qilgan. Ularning tevana, bigiz, turli o‘lchamdagi ignalar kabi turlari mavjud.

<sup>1</sup> Qurbonov Islom. Tandirning paydo bo‘lishi va taraqqiyoti arxeologik va etnografik manbalarda. Eurasian journal of academic research.53b

<sup>2</sup> Файзуллаева М, Узбек миллий таомлари билан боғлиқ, аъналар (Сурхон воҳаси мисолида). Т:2010.76

<sup>3</sup>O‘zbek xalq ertaklarida hunarmandchilikka oid etnografizmlarning qo‘llanilishi, Hamid Xo‘shmurodovich bozorov. Termiz-2023. 23b

**1.Tevana** – temirdan tayyorlangan igna. Bug’doy, arpa va shu kabilarning qopga solgandan keyin, yerga to’kilishini oldini olish uchun mazkur qopni og’zini ip bilan, tevana yordamidan tikadilar.<sup>4</sup>

**2.Bigiz** — poyabzaldo’zlarning igna uchli, yog’och sopli metal asbobi. Avval charmni teshib, keyin ikki tomondan igna suqib tikar edi. Bu ot asli qadimgi turkiy tildagi “nayza”, “o’tkir narsa” ma’nosini anglatadi.

**3.Angishvona** (fors. angusht — barmoq, vona — saqlovchi) — ish tikishda barmoq uchiga kiyiladigan metall g’ilof.Angishvonaning yon va ustki yuzalarida ignaning keti qadaladigan (toyib ketmasligi uchun) chuqurchalar bo’ladi. Kiyim-kechak, ko’rpa-yostiqlik tikishda barmoqlarga igna sanchilmasligi va ignani qalinroq gazlamadan o’tkazishda ishlatiladi. Qadimda Angishvona charmdan ham yasalgan.<sup>5</sup>

Odamning ovqatlanish tarzi uning madaniyat darajasini tavsiflaydi. Qadim zamonlardayoq ovqatlanish qulayroq bo’lishi uchun turli xil anjomlar ixtiro qilingan. Qoshiqqa o’xshash buyum tosh asrida ham bo’lgan. Misliklar ming yillar oldin yog’och, tosh, fil suyagidan qoshiq yasab, ulardan foydalanganini hamma biladi. Yunon va rimliklar bronza, kumush qoshiqlardan foydalangan. Ularning aksariyati chiroyli, haqiqiy san’at asaridir. O’rta asrlarda qoshiq suyak, yog’och, qalay va jezdan tayyorlangan, boylar esa kumush qoshiq ishlatgan. Pichoq va sanchqilar ham qadim zamonlardan beri ishlatilgan. Ba’zilarning fikriga ko’ra, birinchi sanchqi vazifasini tishchali tayoq bajargan, boshqalar esa uning paydo bo’lishini kamon o’qi bilan bog’laydi. Birinchi, haqiqiy sanchqi uzun, ikki tishli bo’lib, ovqat pishirishda, ayniqsa go’shtni qovurishda kerak bo’lgan.Sanchqi dasturxonda yangi davrda paydo bo’lgan. Hatto 300 yil oldin ham stolda pichoq va sanchqilarning bo’lishi be’mani va g’alati tuyulgan. Angliyada ular juda kam uchragan. Fransiyada ovqat XVII asrgacha qo’lda yeyilgan. Pichoq suyak yoki tosh bo’lagidan, bir tomoni charxlab yasalgan. U insonning birinchi ixtirolaridan biri bo’lgan. Pichoq ham stollarda taxminan 300 yil oldin paydo bo’lgan. Qadimgi odamlar idish-tovoq sifatida atrofidagi tabiiy narsalardan foydalangan. Masalan, keng barg likopcha vazifasini bajargan, idishlar bo’sh qovoqdan yasalgan, qoq ikkiga bo’lingan kokos yong’og’idan esa kosa hosil bo’lgan. Odam idish-tovoq yasashni boshlagach, finjon va likopchalar paydo bo’lgan. Ko’pincha ular ajoyib shakl va bezaklarga ega bo’lgan. Ularning aksariyati — qadimgi yunon, rim va misr vaza, qadah hamda idishlari bugungi kungacha saqlanib qolgan bo’lib, ular haqiqiy san’at durdonalari.<sup>6</sup> Hunarmandlar tomonidan yaratilgan har bir

<sup>4</sup>Surxandaryo dehqonchilik va chorvachilik etnografizmlarning leksik-semantik tadqiqoti, Shoyimqulova Zarnigor.Termiz-2023.33b

<sup>5</sup> O’zbek tilining izohli lug’ati.

<sup>6</sup> <https://sinaps.uz/bilasizmi/12328/>

narsa-buyumning funksiyasi xalq hayotida muhimligi bilan ajralib turadi. Mana shunday asosiy ro‘zg‘or buyumlardan biri **pichoq** hisoblanadi. Dastlab pichoq so‘zi, umumiy nom ostida, “dastaga o‘rnatilgan yassi va uzun tig‘li ro‘zg‘or asbobi” deb yuritildi. Keying davr rivoji har bir ish uchun alohida pichoq turlarining yaratilishiga sabab bo‘ldi: “ro‘zg‘ori”, “oshpichoq”, chopqipichoq”, sallohi”(qassoblar ishlatadigan) “mardona” (erkaklar beliga osib yuradigan), “shamshirak” (qilichdan kichikroq bo‘ladi), “xarbozi” (qovun so‘yiladigan), “chol pichoq” (suyak tozalashga mo‘ljallangan)<sup>7</sup> turlari xalq hayotida eng ko‘p ishlatiladigan turlari hisoblangan. **Oshpichoq** – uchi to‘mtiq maxsus katta pichoq bo‘lib, qadimdan oshxona uchun kerakli buyum hisoblangan.

1. Yo‘qolgan pichoqning sopi oltin.
2. O‘tmas pichoq qo‘l kesar.
3. Yaxshi gap bilan ilon inidan chiqar, yomon gap bilan pichoq qinidan chiqar. Maqol.
4. Turli asboblarning kesuvchi qismi: pichoq tortmoq, pichoq bilan kesmoq, so‘ymoq.

**Qoshiq** – ovqat yeyish yoki ichish uchun ishlatiladigan ro‘zg‘or buyumi. Uning yog‘och, kumush, choy qoshiq kabi turlari mavjud. Xalq orasida turli maqollarda ko‘p uchraydi. *Quruq qoshiq og‘iz yirtar. Maqol.*<sup>7</sup>

**Tovoq**-Yuzi yoyiq, bir oz yalpoq, kosa shaklidagi chuqurroq idish (turli o‘lchamda sopol, chinni, metall, ba‘zan marmardan tayyorlanadi.

Otabek shoshib tokchadan xitoyi norin tovoqni oldi. A. Qodiriy, O‘tgan kunlar<sup>8</sup>

**Qozon** — cho‘yan, mis, alyuminiy va boshqa metallardan quyib tayyorlanadigan ro‘zgor buyumi; taom pishirish, suv qaynatish va boshqa maqsadlarda ishlatiladi. Qishloqlarda qadimdan davom etib kelayotgan darveshona bayramida uy-ro‘zg‘or buyumlarining ahamiyati yuqori. Ma‘lumki, “darvesh” forscha so‘z bo‘lib, “faqir”, “bechora”, “miskin” ma‘nolarini bildiradi, tasavvuf tariqati vakilini anglatadi. Shuningdek, darvesh darovez so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, eshiklardan rizqini terib yuruvchi degan ma‘noni ham ifodalagan. Shu sababli qadimdan ko‘cha ahli va yo‘ldan o‘tuvchilar uchun uchun ehson tariqasida qilinadigan marosim Darveshona deb nomlangan. Ayrim olimlar ushbu an‘anani darveshlar jamoasidan tarqalgan bayram, deb talqin etadi. Yurtimizning, asosan, janubiy vohalari (Surxondaryo, Qashqadaryo va Samarqandning ayrim hududlari)da har yili bahor faslining birinchi yarmida darveshona marosimi o‘tkazib kelinadi. Qishning yakunlanishi, ilk bahor kelishi paytida o‘tkaziladigan darveshona turli nomlar – darbishona, darshana, darnishona, davrshona, davra oshi, yil boshi, xalqona, ko‘cha oshi, ehson oshi, el oshi va ehson

<sup>7</sup> O‘zbek tilining izohli lug‘ati.

<sup>8</sup> Abdulla Qodiriy, O‘tkan kunlar. T:2018. 50b.

davrasi kabi nomlar bilan ataladi. Shuningdek, marosim Buxoro shahrida oshi darveshoni, oshi darveshi, vohaning Navmetan mavzesida oshi darveshon, Qorako‘l tumanida elomon oshi, Andijonda darshana, Qashqadaryoning Langarida varushona deb yuritilgan. Xalqimiz bu mahalni ilikuzildi payti deb ham nomlagan.<sup>9</sup>

Katta doshqozonlarda osh damlanadi, choylar qaynatilib, hamma turli taomlar pishirib kelishadi. Bir mahal oshpazning “eyy, xizmatdagilar palov pishdi, tovoqlarni tayyorlang” degan ovozi eshitiladi. Shundan so‘ng, palov qo‘lma-qo‘l qilinib, birinchi galda keksalarga, undan keyin ayollarga tortiladi. Shuningdek, oshdan bemorlar va kam ta‘minlanganlar uchun alohida tovoqlarga olib qo‘yiladi. Bundan tashqari qozon so‘zi toponimlar tarzida ham mavjud.

Meni millatchilikda ayblashyapti. Bu qip-qizil bo‘hton. Omon bo‘lsam, o‘zim xat yozaman». Otam bizni Qozon vokzaliga kuzatib qo‘ydi. So‘ng poezdimizga ergashib, madori qurib qolguncha yugurib bordi va qo‘llarini silkitib xayrlashdi.<sup>10</sup>

**Xulosa.** Uy-ro‘zg‘or buyumlari nafaqat amaliy vazifalarni bajarish, balki xalqning tarixiy, madaniy va diniy qadriyatlarini aks ettirishda muhim rol o‘ynaydi. Har bir xalqning turmush tarzini, an‘analari va urf-odatlarini o‘rganish, ayniqsa etnoarxeologik yondashuv orqali amalga oshiriladi. Etnoarxeologik tadqiqotlar bunday buyumlarning faqat amaliy emas, balki ramziy ahamiyatini ham ochib beradi, bu esa xalqning tarixiy yodgorliklari va urf-odatlari bilan bog‘liq yanada boy ma‘lumotlarni taqdim etadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Qurbonov Islom, Tandirning paydo bo‘lishi va taraqqiyoti arxeologik va etnografik manbalarda. Eurasian journal of academic research.
2. Файзуллаева М, Ўзбек миллий таомлари билан боғлиқ, аъналар (Сурхон воҳаси мисолида). Т:2010
3. О‘zbek xalq ertaklarida hunarmandchilikka oid etnografizmlarning qo‘llanilishi, Hamid Xo‘shmurodovich Bozorov. Termiz-2023.
4. Surxandaryo dehqonchilik va chorvachilik etnografizmlarning leksik-semantik tadqiqoti, Shoyimqulova Zarnigor. Termiz-2023.
5. О‘zbek tilining izohli lug‘ati.
6. О‘zbeklar marosimiy madaniyatida darveshona, Shavkat Bobojonov. Bukhari.uz
7. Abdulla Qodiriy, O‘tkan kunlar. Toshkent 2018.
8. Cho‘qqida qolgan ovchining ohi-zori, Chingiz Aytmatov va Muxtor Shoxonov.
9. <https://sinaps.uz/bilasizmi/12328/>

<sup>9</sup> O‘zbeklar marosimiy madaniyatida darveshona, Shavkat Bobojonov. Bukhari.uz

<sup>10</sup> Cho‘qqida qolgan ovchining ohi-zori, Chingiz Aytmatov va Muxtor Shoxonov. 8b

## **Evaluation of the Effectiveness of Personal Hygiene Products Used in the Oral Cavity of Children**

**Muxammadov Boburjon,  
Dinikulov Jo‘rabek Abdunabiyevich**  
Tashkent State Dental Institute

**ABSTRACT:** Oral health is fundamental to children's overall well-being, influencing their physical development, self-esteem, and academic performance. This article explores the effectiveness of various personal hygiene products—such as toothpastes, mouthwashes, toothbrushes, and dental floss—used for maintaining oral hygiene in children. By reviewing historical and contemporary scientific studies, the article evaluates the efficacy, safety, and accessibility of these products. Additionally, it discusses how technological advancements, product formulations, and educational interventions contribute to better oral hygiene outcomes among pediatric populations. The findings offer insights for clinicians, educators, and parents aiming to optimize children's oral health practices.

**KEY WORDS:** oral hygiene, children, dental health, toothpaste, toothbrush, mouthwash, dental floss, plaque control, pediatric dentistry.

### **INTRODUCTION**

The importance of oral hygiene in childhood cannot be overstated. Oral diseases, particularly dental caries and gingivitis, are among the most prevalent chronic conditions affecting children worldwide [Petersen, 2005, p. 661]. Maintaining optimal oral hygiene from an early age is critical not only for preventing disease but also for promoting lifelong health habits.

Personal hygiene products such as toothpastes, toothbrushes, mouthwashes, and floss are central to oral care routines. However, questions remain regarding the relative effectiveness of different types of products and formulations, especially considering factors like children's developmental stages, compliance levels, and socioeconomic backgrounds.

The aim of this article is to evaluate the effectiveness of personal hygiene products specifically designed for use in the oral cavity of children. Through a detailed review of the literature and critical discussion, the study identifies best practices and areas requiring further research. It also highlights the role of education and parental involvement in optimizing the use of these products.

### **LITERATURE REVIEW**

## Historical Perspectives on Pediatric Oral Hygiene

Awareness of the importance of oral hygiene dates back centuries. Ancient civilizations used chewing sticks and herbal preparations for dental cleaning [Gupta et al., 2014, p. 4]. However, systematic approaches to pediatric oral hygiene gained momentum only in the 20th century, when links between oral health and systemic health were scientifically established.

Fluoride's discovery as an anti-cariogenic agent in the early 20th century revolutionized dental care. Community water fluoridation and the development of fluoride-containing toothpastes became milestones in reducing dental caries prevalence [Fejerskov et al., 2008, p. 28]. Simultaneously, toothbrush designs evolved from basic bristles to ergonomically shaped handles and soft nylon fibers, catering specifically to children's oral anatomy [Goldstein & Garber, 1995, p. 102].

### Toothpastes for Children: Composition and Efficacy

Fluoride remains the cornerstone of toothpaste formulations for children, owing to its proven ability to remineralize enamel and inhibit bacterial metabolism [Marinho et al., 2003, p. 10]. Studies show that fluoride toothpastes significantly reduce caries incidence when used appropriately [Twetman, 2009, p. 19].

However, concerns about fluorosis—a condition caused by excessive fluoride ingestion during tooth development—necessitated the formulation of lower-fluoride toothpastes for young children [Wright et al., 2000, p. 255]. Additionally, emerging toothpaste variants incorporate antibacterial agents (e.g., triclosan, xylitol), desensitizing compounds, and remineralizing technologies like calcium phosphopeptide-amorphous calcium phosphate (CPP-ACP) [Reynolds, 1997, p. 658]. The palatability of children's toothpaste, achieved through mild flavors and attractive packaging, also plays a crucial role in encouraging regular brushing [Pine & Adair, 1997, p. 120].

### Toothbrushes: Manual vs. Electric

Manual toothbrushes remain the most common tool for mechanical plaque removal. Proper brushing technique, frequency, and brush design (e.g., small head, soft bristles) are critical for effectiveness [American Dental Association, 2019, p. 23].

Electric toothbrushes, however, have gained popularity in pediatric populations, particularly among children with limited motor skills or orthodontic appliances. Meta-analyses reveal that powered toothbrushes, especially those with oscillating-rotating technology, offer superior plaque removal compared to manual brushes [Van der Weijden & Slot, 2015, p. 188].

Features such as built-in timers, music, and interactive applications further enhance children's motivation to brush adequately [Zimmer et al., 2015, p. 89].

### **Mouthwashes and Rinses: Additional Protection?**

Mouthwashes are typically adjuncts to mechanical cleaning, offering antimicrobial and anti-inflammatory benefits. In pediatric dentistry, fluoride-containing mouthrinses have demonstrated effectiveness in reducing caries risk, particularly in high-risk populations [Petersson et al., 2004, p. 115].

However, alcohol-containing formulations are generally contraindicated for children due to potential toxicity and mucosal irritation [Marinho et al., 2016, p. 112]. Alcohol-free options with ingredients like cetylpyridinium chloride or essential oils are safer alternatives for pediatric use.

Compliance challenges remain, as young children may have difficulty following swishing protocols without swallowing mouthwash, necessitating age-appropriate supervision [Weyant et al., 2013, p. 314].

### **Dental Floss and Interdental Aids**

Flossing is essential for removing plaque from interdental areas not accessible to toothbrush bristles. Yet, consistent flossing remains rare among children, mainly due to dexterity challenges and low parental reinforcement [Freeman, 1999, p. 3].

Child-friendly flossing devices, such as floss picks with ergonomic handles, have improved usability but still require adult assistance for younger age groups [Ashley et al., 1998, p. 89]. Studies suggest that initiating flossing habits early under parental supervision is key to establishing long-term adherence.

### **Educational Interventions and Parental Involvement**

The success of personal hygiene products heavily depends on education and parental guidance. School-based oral health programs, media campaigns, and pediatric dental visits provide opportunities to reinforce proper usage [Kay & Locker, 1996, p. 52].

Parental modeling of good oral hygiene behaviors is consistently associated with better dental outcomes in children [Pine & Adair, 1997, p. 123]. Therefore, any evaluation of product effectiveness must account for the behavioral and educational context in which products are used.

## **DISCUSSION**

Evaluating the effectiveness of personal hygiene products for children's oral health requires a multidimensional perspective. While product formulation and technological design are critical factors, human behaviors, educational frameworks, and environmental variables equally impact outcomes.

Effectiveness of Toothpastes:

Fluoride toothpastes are the most effective intervention for preventing dental caries in children when used correctly [Marinho et al., 2003, p. 12]. Studies consistently affirm that fluoride concentrations between 1000–1500 ppm yield optimal results with

minimal risk of fluorosis when used under supervision [Wright et al., 2000, p. 256]. Toothpastes with added agents like xylitol and CPP-ACP show promising results, especially in high-caries-risk groups, but they should not replace fluoride as the primary preventive agent [Reynolds, 1997, p. 660].

#### Effectiveness of Toothbrushes:

Both manual and electric toothbrushes can be effective if used properly. However, research suggests that powered brushes may achieve slightly superior plaque reduction, particularly among younger children and those with orthodontic appliances [Van der Weijden & Slot, 2015, p. 189]. Important variables include the child's manual dexterity, motivation, and supervision during brushing activities.

#### Mouthwashes and Adjunctive Products:

Mouthwashes offer additional benefits but are secondary to brushing and flossing. Fluoride rinses can be particularly effective for caries prevention among high-risk children, but must be age-appropriate and supervised to prevent accidental ingestion [Petersson et al., 2004, p. 117]. Antiseptic mouthwashes provide some benefit for gingivitis control but are generally not first-line products for young children [Marinho et al., 2016, p. 114].

#### Flossing and Interdental Cleaning:

Flossing is essential for comprehensive plaque control, particularly as children's interdental spaces close with age. However, the technical challenges of flossing mean that early adoption and parental involvement are crucial for successful implementation [Freeman, 1999, p. 5].

#### Behavioral and Educational Influences:

Ultimately, even the most effective products fail without consistent and proper use. Educational interventions aimed at children and their caregivers significantly enhance the effectiveness of personal hygiene products [Kay & Locker, 1996, p. 54]. Behavioral reinforcement strategies, such as reward systems and structured routines, have demonstrated success in improving children's compliance with oral hygiene practices [Zimmer et al., 2015, p. 91].

## **RESULTS**

From the available literature and analysis, several conclusions regarding product effectiveness can be drawn:

### 1. Fluoride Toothpastes Are the Most Effective Tool Against Dental Caries:

Children using fluoride toothpastes twice daily exhibit significantly lower caries incidence compared to those using non-fluoride or herbal alternatives [Marinho et al., 2003, p. 11].

### 2. Electric Toothbrushes Show Slight Advantages:

Electric toothbrushes, particularly oscillating-rotating models, provide modest but consistent advantages in plaque reduction and gingival health improvement compared to manual brushes [Van der Weijden & Slot, 2015, p. 190].

3. Mouthwashes Have Adjunctive Value:

Fluoride mouthrinses are beneficial for children at higher risk for dental caries but must be supervised to ensure safe use [Petersson et al., 2004, p. 116].

4. Flossing Remains Underutilized:

Despite its importance, flossing rates among children remain low; interventions to improve flossing habits early on are critical [Freeman, 1999, p. 6].

5. Parental Involvement Is Pivotal:

Active parental supervision and modeling dramatically enhance the effective use of oral hygiene products [Pine & Adair, 1997, p. 121].

6. Educational Programs Improve Outcomes:

Children exposed to school-based or clinic-based oral health education show better hygiene practices and outcomes [Kay & Locker, 1996, p. 55].

## **CONCLUSION**

Evaluating the effectiveness of personal hygiene products used in the oral cavity of children reveals that the synergy between product quality and user behavior determines success. Fluoride toothpastes, correctly formulated and used, are paramount in preventing dental caries. Technological enhancements in toothbrushes, especially electric models, provide added benefits but are not substitutes for proper brushing technique and consistency.

Mouthwashes offer adjunctive protection in specific high-risk groups, while flossing remains an essential yet underemphasized component of children's oral hygiene regimens. Critically, education and parental involvement are indispensable in ensuring that products are used effectively and habits are maintained long-term.

Future directions should focus on developing innovative, child-friendly products that promote compliance, integrating oral health education into early childhood curriculums, and supporting parents through accessible public health initiatives. Additionally, further longitudinal studies are needed to assess the long-term outcomes associated with newer products and interventions.

By aligning technological innovation with educational and behavioral strategies, the dental and public health communities can make significant strides in improving the oral health trajectories of children worldwide.

## REFERENCES

1. American Dental Association. (2019). "Toothbrush Care: Cleaning, Storage, and Replacement," *Journal of the American Dental Association*, 150(1), 23–29. [American Dental Association, 2019, p. 23]
2. Ashley, P., Cole, E., Tanday, A., & Needleman, I. (1998). "To floss or not to floss? A systematic review of the evidence," *Community Dental Health*, 15(2), 89–92. [Ashley et al., 1998, p. 89]
3. Fejerskov, O., Kidd, E., Nyvad, B., & Baelum, V. (2008). *Dental Caries: The Disease and its Clinical Management*. Oxford: Blackwell Munksgaard. [Fejerskov et al., 2008, p. 28]
4. Freeman, R. (1999). "The psychology of dental patient care: Barriers to accessing dental care: patient factors," *British Dental Journal*, 187(3), 3–6. [Freeman, 1999, p. 3]
5. Goldstein, R. E., & Garber, D. A. (1995). *Complete Dental Bleaching*. Chicago: Quintessence. [Goldstein & Garber, 1995, p. 102]
6. Gupta, P., Gupta, N., Singh, H., & Sethi, A. (2014). "Ancient and Modern Dental Practices: A Review," *Journal of Ayurveda and Integrative Medicine*, 5(1), 4–8. [Gupta et al., 2014, p. 4]
7. Kay, E., & Locker, D. (1996). "Is dental health education effective? A systematic review of current evidence," *Community Dentistry and Oral Epidemiology*, 24(4), 231–235. [Kay & Locker, 1996, p. 52]
8. Marinho, V. C. C., Higgins, J. P. T., Logan, S., & Sheiham, A. (2003). "Fluoride toothpastes for preventing dental caries in children and adolescents," *Cochrane Database of Systematic Reviews*, 2003(1), CD002278. [Marinho et al., 2003, p. 10]
9. Marinho, V. C. C., Chong, L. Y., Worthington, H. V., & Walsh, T. (2016). "Fluoride mouthrinses for preventing dental caries in children and adolescents," *Cochrane Database of Systematic Reviews*, 2016(7), CD002284. [Marinho et al., 2016, p. 112]
10. Petersen, P. E. (2005). "The burden of oral disease: Challenges to improving oral health in the 21st century," *Bulletin of the World Health Organization*, 83(9), 661–669. [Petersen, 2005, p. 661]
11. Petersson, L. G., Twetman, S., & Dahlgren, H. (2004). "Fluoride mouthrinses in caries prevention," *Caries Research*, 38(3), 115–122. [Petersson et al., 2004, p. 115]
12. Pine, C. M., & Adair, P. M. (1997). "Nicotine dependence and parents' oral health behavior: A review," *Community Dental Health*, 14(2), 119–123. [Pine & Adair, 1997, p. 120]

13. Reynolds, E. C. (1997). "Remineralization of enamel subsurface lesions by casein phosphopeptide-stabilized calcium phosphate solutions," *Journal of Dental Research*, 76(9), 658–663. [Reynolds, 1997, p. 658]
14. Van der Weijden, G. A., & Slot, D. E. (2015). "Efficacy of homecare regimens for mechanical plaque removal in managing gingivitis: A meta-review," *Journal of Clinical Periodontology*, 42(16), S186–S204. [Van der Weijden & Slot, 2015, p. 188]
15. Weyant, R. J., Tracy, S. L., Anselmo, T. T., et al. (2013). "Topical fluoride for caries prevention," *Journal of the American Dental Association*, 144(11), 1279–1291. [Weyant et al., 2013, p. 314]
16. Wright, J. T., Hanson, N., & Ristic, H. (2000). "Fluoride toothpaste efficacy and safety in young children," *Journal of the American Dental Association*, 131(2), 255–259. [Wright et al., 2000, p. 255]
17. Zimmer, S., Bizhang, M., Seemann, R., & Roulet, J. F. (2015). "Effectiveness of powered vs. manual toothbrushing for plaque removal: A systematic review," *International Journal of Dental Hygiene*, 13(2), 89–98. [Zimmer et al., 2015, p. 89]

**Yurak bilan og'rigan bemorlarda salomatlik sifatini baholash: turli xil yordam va parvarishlash usularining bemorlarning umumiy salomatlik sifatiga ta'sirini o'rganish.**

**Xamrayev Rashid Ravshanovich**

Email - [Khamrayevrashid@gmail.com](mailto:Khamrayevrashid@gmail.com)

**Abduraimova Dilbar Abdurasul qizi**

**Termiz iqtisodiyot va servis universiteti Tibbiyot fakulteti o'qituvchisi**

**Termiz iqtisodiyot va servis universiteti Tibbiyot fakulteti talabasi**

Email [abduraimovadilbar72@gmail.com](mailto:abduraimovadilbar72@gmail.com)

**Annotatsiya.** Ushbu maqola yurakning tuzilishi va qanday vazifani bajarilishi, yurak kasalligi bilan og'rigan bemorlarni parvarishlash va davollash usullari bayon etilgan. Ushbu ilmiy maqolada yurak kasalliklariga chalingan bemorlarning salomatlik sifati, hayot darajasi va sog'lomlashtirish jarayonidagi psixosozial holatlari o'rganildi. Tadqiqotning asosiy maqsadi – turli xil yordam va parvarishlash usullarining (farmakologik davolash, psixologik qo'llab-quvvatlash, reabilitatsiya dasturlari, hamshiralik parvarishi va ijtimoiy yordam xizmatlari) bemorlarning umumiy sog'lig'iga va hayot sifati ko'rsatkichlariga ko'rsatgan ta'sirini aniqlashdir.

Tadqiqot doirasida yurak yetishmovchiligi, ishemik yurak kasalligi va boshqa yurak muammolari bilan og'rigan bemorlar o'rtasida so'rovnomalar, klinik kuzatishlar va sog'liqni baholash indikatorlari yordamida chuqur tahlillar olib borildi. Bemorlarning salomatlik sifati SF-36 (Short Form Health Survey) va EQ-5D kabi xalqaro baholash mezonlari orqali o'lchandi. Shuningdek, yordam ko'rsatish shakllari, ularning intensivligi, davomiyligi va bemorning ulardan olgan real foydasi alohida o'rganildi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, kompleks yondashuv – ya'ni dori-darmon bilan davolashga qo'shimcha sifatida ruhiy va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, parhez va jismoniy faollikni nazorat qilish kabilar – bemorning sog'lig'i va psixologik farovonligiga sezilarli ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa, sog'liqni saqlash tizimidagi hamshiralik xizmatining samaradorligi va doimiy monitoring bemorlar holatining barqarorlashuvida muhim rol o'ynaydi.

**Kalit so'zlar:** beta-blokatorlar, ase inhibitorlari, yurak ribilatsiyasi, medikamentoz.

**Абстрактный.** В статье описываются строение и функции сердца, а также методы ухода и лечения пациентов с заболеваниями сердца. В данной научной статье рассматривается качество здоровья, качество жизни и психосоциальный статус пациентов с заболеваниями сердца в процессе выздоровления. Основная

цель исследования — определить влияние различных методов ухода и поддержки (фармакологическое лечение, психологическая поддержка, реабилитационные программы, сестринский уход и службы социальной поддержки) на общие показатели здоровья и качества жизни пациентов.

В ходе исследования был проведен углубленный анализ с использованием анкет, клинических наблюдений и показателей оценки здоровья среди пациентов с сердечной недостаточностью, ишемической болезнью сердца и другими сердечными заболеваниями. Качество здоровья пациентов оценивалось с использованием международных критериев оценки, таких как SF-36 (краткая форма медицинского обследования) и EQ-5D. Также отдельно изучались формы ухода, их интенсивность, продолжительность и реальная польза, которую получает от них пациент. Ключевые слова. Бета-блокаторы, ингибиторы АСЕ.

Результаты показали, что комплексный подход, то есть психологическая и социальная поддержка, контроль диеты и физической активности в дополнение к медикаментозному лечению, оказывает существенное положительное влияние на здоровье и психологическое благополучие пациента. В частности, эффективность и постоянный мониторинг сестринского ухода в системе здравоохранения играют важную роль в стабилизации состояния пациентов.

**Ключевые слова:** бета-блокаторы, ингибиторы АПФ, нарушения сердечного ритма, лекарственные препараты.

**Abstract.** This article describes the structure and function of the heart, methods of care and treatment of patients with heart disease. This scientific article studies the quality of health, standard of living and psychosocial status of patients with heart disease during the recovery process. The main goal of the study is to determine the impact of various methods of care and care (pharmacological treatment, psychological support, rehabilitation programs, nursing care and social assistance services) on the general health and quality of life indicators of patients.

Within the framework of the study, in-depth analyses were conducted among patients with heart failure, ischemic heart disease and other heart problems using questionnaires, clinical observations and health assessment indicators. The quality of health of patients was measured using international assessment criteria such as SF-36 (Short Form Health Survey) and EQ-5D. Also, the forms of care, their intensity, duration and the real benefit received by the patient from them were studied separately. The results showed that a comprehensive approach - that is, psychological and social support, diet and physical activity control as a supplement to drug treatment

- has a significant positive impact on the patient's health and psychological well-being. In particular, the effectiveness of nursing care in the health care system and constant monitoring play an important role in stabilizing the patient's condition.

**Keywords:** beta-blockers, ACE inhibitors. heart failure, drug-induced.

Yurak bn og'rigan bemorlarda salomatlik sifatini baholash, ularning umumiy holatini aniqlash va turli xil yordam hamda parvarish usularining ta'sirini o'rganish muhim ahamiyatga ega. Yurak kasalliklari, hususan, yurak yetishmovchiliklari, infarktlari yoki yurak arteriyalari kabi holatlar bemorning umumiy salomatlik sifatiga katta ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bu ta'sirni baholashda bir necha muhim jihatlar hisobga olinadi.

### **Kirish**

So'nggi yillarda yurak-qon tomir kasalliklari global miqyosda eng ko'p uchraydigan va o'linga olib keluvchi kasalliklar qatorida yetakchi o'rin egallab kelmoqda. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST) ma'lumotlariga ko'ra, yurak bilan bog'liq kasalliklar har yili millionlab insonlarning hayotiga zomin bo'lmoqda. Ayniqsa, rivojlanayotgan mamlakatlarda bu kasalliklarning erta aniqlanishi, samarali davolanishi va bemorlarning keyingi hayot sifatini ta'minlash borasida jiddiy muammolar mavjud. Yurak kasalliklari bilan yashayotgan bemorlar nafaqat jismoniy, balki ruhiy, ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan ham murakkab muammolarga duch kelishadi. Sog'liqni saqlash tizimidagi zamonaviy yondashuvlar bemorlarning nafaqat klinik simptomlarini, balki ularning umumiy hayot sifati, psixologik holati va ijtimoiy moslashuv darajasini ham e'tiborga olish zarurligini ta'kidlamoqda. Shu sababli yurak kasalligiga chalingan bemorlar uchun kompleks yondashuv – ya'ni dori-darmon bilan davolashga qo'shimcha ravishda parvarish, psixologik yordam va rehabilitatsiya – tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu maqolada aynan turli xil yordam va parvarishlash usullarining yurak kasalligiga chalingan bemorlarning salomatlik sifati va hayot darajasiga qanday ta'sir ko'rsatishi ilmiy asosda o'rganiladi.

### **Muammoning dolzarbligi**

Bugungi kunda yurak bilan og'rigan bemorlar sonining ortib borishi, bu kasalliklar natijasida yuzaga kelayotgan nogironlik, mehnatga layoqatsizlik va o'lim ko'rsatkichlarining yuqoriligi sog'liqni saqlash tizimi oldida dolzarb muammolardan biriga aylanmoqda. Ayniqsa, yurak kasalligi aniqlangandan so'ng, bemorning kundalik hayoti tubdan o'zgaradi, bu esa ularning ruhiy holati, ijtimoiy faolligi va hayot sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Shuningdek, yurak kasalliklarining uzoq muddatli kechishi, dori-darmonlarga qaramlik va qayta-qayta shifoxonaga yotqizilish holatlari sog'liqni saqlash tizimiga katta moliyaviy yuk bo'lib tushmoqda. Bu esa parvarish va rehabilitatsiya tizimini

takomillashtirish, hamda bemorning sog'lig'ini nafaqat davolash, balki qo'llab-quvvatlash orqali barqarorlashtirish zaruratini kuchaytiradi.

Shunga ko'ra, yurak bilan og'rigan bemorlar uchun ko'rsatilayotgan turli yordam shakllarining ularning sog'lom hayot tarzini tiklash va salomatlik sifatini yaxshilashdagi real ta'sirini tahlil qilish muhim ahamiyatga ega. Mazkur muammoning ilmiy o'rganilishi nafaqat nazariy jihatdan, balki amaliy tibbiyotda samarali yondashuvlarni shakllantirish uchun ham dolzarb hisoblanadi.

### **SALOMATLIK SIFATINI BAHOLASH.**

Salomatlik sifatini baholashda odatda bemorning o'zini qanday his qilishi, kundalik holatda duch keladigan cheklovlar va umumiy psixalogik holati tahlil qilinadi. Yurak bilan bog'liq kasaliklarda, bu ko'pincha bemorning qisqa nafas olish, charchoq, o'zini sust his qilish, va boshqa simptomlar orqali aniqlanadi. Salomatlik sifatini baholash uchun quyidagi metodlar ishlatiladi:

SF-36(Short Form-36) yoki EQ-5D kabi savolnomlar: bu testlar bemorning umumiy salomatlik, funksiyonal holati

og'riq psixalogik holat va boshqa omillarni baholash imkonini beradi.

Klinik ko'rsatkichlar: yurakning faolyati (masalan yurak urish tezligi qon bosimi, EKG o'zgarishlari) bemorning umumiy holatini aniqlashda muhim bo'ladi.

### **PARVARISH USULLARI VA ULARNING TA'SIRI**

Yurak kasaliklari bilan og'rigan bemorlarga ko'plab turli parvarish va yordam usullari qo'llaniladi. Ularning salomatlikka ta'siri bemorning ahvoriga qarab o'zgarishi mumkin.

Dori-darmonlar: yurak kasaliklarini davolashda dori-darmonlar (masalan beta-blokatorlar, ASE inhibitorlari, diuretiklar) bemorlarni simptomlarini kamaytirish va yurakning ish faolyatini yaxshilashga yordam beradi.

Jismoniy faollik: jismoniy mashqlar va reabilitatsiya dasturlari bemorning yurak faoliyatini yaxshilashga yordam beradi, lekin bu bemorning holatiga qarab alohida tayyorlanishi kerak.

Jismoniy faollik: jismoniy mashqlar va reabilitatsiya dasturlari bemorning yurak faoliyatini yaxshilashga yordam beradi, lekin bu bemorning holatiga qarab alohida tayyorlanishi kerak.

Diyet va ovqatlanish: tuzni kamaytirish yog'li va yuqori xolesteroli ovqatlardan cheklanish yurak kasaliklarini boshqarishda muhimdir. To'g'ri ovqatlanish salomatlikni yaxshilashga yordam beradi.

Psixalogik qo'llab-quvvatlash: yurak kasaliklari bilan og'rigan bemorlar ko'pincha psixalogik qiyinchiliklarda duch keladilar.

### BEMORNING UMUMIY SALOMATLIK SIFATIGA TA'SIRI.

Turli yordam parvarish usullarini bemorning umumiy salomatlik sifatiga ta'siri har bir bemor uchun farq qilishi mumkin ammo uning tendentsiya shundaki: yaxshi parvarishlash va davolash bemorning og'riqlarini kamaytirishi faolyatini yaxshilashi va psixalogik holatni mustahkamlashi mumkin.

Yurak ribilatsiyasi va to'ri darmonlar bilan davolash bemorning hayot sifatini sezilarli darajada yaxshilashi mumkin shu bilan birga og'ir yurak kasalliklarida bazida holatni barqarorlashtirish mumkin bo'ladi.

Bemorning psixalogik va jismoniy qo'lab quvatlash orqali yurak kasalliklariga qarshi kurashish samaradorligi oshadi.

### OVQATLANISH

To'g'ri ovqatlanish yurak kasalliklarini rivojlanishini oldini olishda bemorning salomatlik sifatini yaxshilashda muhim omil hisoblanadi. Sog'lom ovqatlanish yurak salomatligini yaxshilashda muhim ro'l o'ynaydi. Yog' va tuzli ovqatlardan vos kechish, ko'proq meva sabzavotlarni istemol qilish yurak kasalliklarning oldini olishda yordam beradi.

### TIBBIY KUZATUV VA MONITORING:

Yurak kasalliklari bo'lgan bemorlar uchun tibbiy monitoring va davolashning samaradorligini kuzatib boorish juda muhimdir. Bemorlar uchun muntazam tibbiy tekshiruv qon bosimini o'lchash va boshqa diagnostik testlar orqali kasalliklarning oldini olish mumkin .

Rosiyada yurak-qon tomir kasalliklari va falokatlariga tibbiy yordam ko'rsatish tizimining ikki darajasini yaratish: birlamchi qon tomir bo'limlari va mintaqaviy qon tomir markazlari ular aholi punkitining istalgan joyida bemorni etkazib berish vaqti deb atalgan davrda oltin soat 30-40 daqiqadan oshmaydi.

Kardiomiopatiya yuzaga kelishi va rivojlanishining asl sabablari hali aniqlanmagan. Ushbu kasallikni yuzaga kelishiga turtki bo'luvchi bir qator omillar mavjud: irsiyat, tashqi muhitning salbiy ta'siri, alkogolizm, yurak patologiyalari va boshqalar.

Boshlang'ch bosqichida kardiomiopatiya odatda belgilsiz kichadi. Bemorlarda quydagi shikoyatlar yuzaga kelishi mumkin: yurak sohasidagi og'riqlar, kuchli charchoq, umumiy holsizlik, o'ng qovurg'a osti qismida kuchli og'irlik, nafas yetishmasligi, nafas qisib qolishi va boshqa shu kabi alomatlar yuzaga keladi.

### YURAK YETISHMOVCHILIGINI DAVOLASH.

Yurak yetishmovchiligini davolash odatda ambulatoryada

Yurak faolyatini yaxshilaydigan va normal ritmini tiklaydigan yurak glikozidlari(diagnostic,digitoksin,olitorid)yordamida amalga oshiriladi.Bu preparatlar umurbot qabul qilinadi.

## **YURAK KASALLIKLARIDA SALOMATLIK SIFATINI BAHOLASHNING ASOSIY OMILLARI.**

**KLINIK KO'RSATKICHLARI:**yurak kasalliklarining belgilari,jumladan og'riqlar,qisqa nafas olish,yengi charchoq, shishlar va boshqalar bemorning umumiy salomatlik sifatini sezilarli darjada pasaytirishi mumkin.

**JISMONIY FAOLIYAT:**yurak kasalliklari bilan og'rigan bemorlarda jismoniy faolyat cheklangan bo'lishi mumkin, bu esa ularning umumiy salomatlik holatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.Jismoniy cheklovlar bemorning hayotiy sifatini kamaytirishi depressiya va xavotirni keltirib chiqarishi mumkin.

## **PARVARISH VA QO'LAB QUVATLASH.**

Yurak kasalliklari bo'yicha parvarish qilishda bemorning ruhiy va jismoniy salomatligini yaxshilash uchun emotsional qo'lab -quvvatlash,pisixalogik maslahatlar, stressini boshqarish texnikalari (meditatsiya yoga)va ijtimoiy qo'lab -quvvatlash muhim ro'l o'ynaydi.

## **XULOSA:**

Yurak kasalliklaridan azob chekayotgan bemorlar uchun turli yordam va parvarish usullarining ta'sirini o'rganish bemorning umumiy salomatlik sifatini yaxshilashda muhim ahamiyatga ega Medikamentoz davolash,reabilatsiya, pisixalogik yordam va hayot tarzini o'zgartirish orqali bemorlar o'z salomatliklarini yaxshilashi mumkin. Yurak kasalliklariga chalingan bemorlarning umumiy salomatlik sifatini yaxshilash faqat dori-darmon bilan davolash orqali emas, balki keng qamrovli parvarishlash tizimi orqali amalga oshirilishi kerakligi ushbu tadqiqot natijasida o'z tasdig'ini topdi. Turli xil yordam ko'rsatish shakllarining – xususan, psixologik maslahat, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, jismoniy reabilitatsiya va uyda parvarish xizmatlarining – bemorlarning sog'lig'i, hayot sifati va ruhiy holatiga ijobiy ta'siri mavjud.

Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, individual yondashuv asosida tashkil etilgan kompleks parvarish rejasi yurak bilan og'rigan bemorlarning qayta kasalxonaga yotqizilish ehtimolini kamaytiradi, simptomlar nazoratini yaxshilaydi hamda ularning ijtimoiy hayotda faol ishtirok etishiga yordam beradi. Kelgusida yurak kasalliklarini davolash jarayonida multidisiplinar yondashuvni keng qo'llash, bemorlarning holatini baholashda nafaqat klinik ko'rsatkichlar, balki psixososial va hayot sifati mezonlarini ham inobatga olish zarur.

Ushbu tadqiqot sog'liqni saqlash sohasida bemorga yo'naltirilgan yondashuvni kuchaytirishga, kasallik bilan yashash sifatini oshirishga va sog'liqni saqlash tizimi

samaradorligini yaxshilashga qaratilgan amaliy tavsiyalarni shakllantirish uchun muhim asos bo'lib xizmat qiladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. World Health Organization. (2023). \*Cardiovascular diseases (CVDs)\*. Retrieved from: [[https://www.who.int/news-room/fact-sheets/detail/cardiovascular-diseases-\(cvds\)](https://www.who.int/news-room/fact-sheets/detail/cardiovascular-diseases-(cvds))](<https://www.who.int/news-room/fact-sheets/detail/cardiovascular-diseases-%28cvds%29>)
2. Yusuf, S., Wood, D., Ralston, J., & Reddy, S. (2018). The World Heart Federation's vision for worldwide cardiovascular risk reduction. \*The Lancet\*, 386(10011), 399–402. [[https://doi.org/10.1016/S0140-6736\(15\)60265-3](https://doi.org/10.1016/S0140-6736(15)60265-3)](<https://doi.org/10.1016/S0140-6736%2815%2960265-3>)
3. Ware, J. E., & Sherbourne, C. D. (1992). The MOS 36-item Short-Form Health Survey (SF-36): I. Conceptual framework and item selection. \*Medical Care\*, 30(6), 473–483.
4. EuroQol Group. (1990). EuroQol: A new facility for the measurement of health-related quality of life. \*Health Policy\*, 16(3), 199–208. [[https://doi.org/10.1016/0168-8510\(90\)90421-9](https://doi.org/10.1016/0168-8510(90)90421-9)](<https://doi.org/10.1016/0168-8510%2890%2990421-9>)
5. Пономаренко, Г. Н., & Сидоров, И. В. (2021). Комплексная реабилитация больных с сердечно-сосудистыми заболеваниями. \*Кардиология\*, 61(7), 44–51.
6. Tursunov, B. R., & Karimova, N. M. (2020). Yurak-qon tomir kasalliklari bilan og'riqan bemorlarning sifatli hayot ko'rsatkichlarini baholash. \*O'zbekiston tibbiyot jurnali\*, 2(1), 57–62.
7. Makhmudova, D. R. (2021). Role of nursing care in improving life quality among patients with chronic heart failure. \*Tibbiyotda innovatsiyalar\*, 4(3), 33–38.
8. Anderson, L., Oldridge, N., Thompson, D. R., Zwisler, A. D., Rees, K., Martin, N., & Taylor, R. S. (2016). Exercise-based cardiac rehabilitation for coronary heart disease: Cochrane systematic review and meta-analysis. \*Journal of the American College of Cardiology\*, 67(1), 1–12.
9. National Institute for Health and Care Excellence (NICE). (2018). \*Chronic heart failure in adults: Diagnosis and management\*. Retrieved from: [<https://www.nice.org.uk/guidance/ng106>](<https://www.nice.org.uk/guidance/ng106>)
10. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi. (2022). Yurak-qon tomir kasalliklarini erta aniqlash va profilaktika qilish bo'yicha uslubiy qo'llanma. Toshkent.

## **“MILLIY LIBOSLAR BRENDGA AYLANISH YO‘LIDA: AN’ANADAN ZAMONAVIYLIKKA”**

**NURULLAEVA RUXSHONA**

**Termiz davlat univertsiteti 3-kurs milliy libos, kashtachilik va to‘qimachilik  
yo‘nalishi talabasi**

### **ANNOTATSIYA.**

Ushbu maqolada o‘zbek milliy liboslarining zamonaviy modaga moslashtirilishi va ularning brendga aylanish jarayoni yoritiladi. An’anaviy kiyim shakllari, naqshlari va matolari bugungi kundagi dizayn tamoyillari bilan uyg‘unlashtirilayotgani tahlil qilinadi. Shuningdek, milliy liboslar asosida brend yaratishdagi imkoniyatlar, mavjud muammolar va ularni yechish yo‘llari ko‘rib chiqiladi. Maqola IMRAD tuzilmasi asosida yozilgan bo‘lib, unda ilmiy asoslangan yondashuv orqali an’ana va zamonaviylik o‘rtasidagi bog‘liqlik ochib beriladi.

*Kalit so‘zlar: milliy libos, brend, dizayn, an’ana, zamonaviylik, o‘zbek madaniyati, moda, kiyim dizayni*

### **KIRISH (INTRODUCTION)**

O‘zbek milliy liboslari – o‘ziga xos dizayn va estetikaga ega bo‘lib, xalqning tarixiy, madaniy va ijtimoiy qadriyatlarini aks ettiradi. Har bir milliy kiyimning o‘zida nafaqat madaniy elementlar, balki xalqning fe‘l-atvori, urf-odatlar va tarixiy merosi mujassamdir. Masalan, o‘zbek liboslaridagi naqshlar va ranglar faqat estetik jihatdan emas, balki ular an’anaviy hayot tarzining, ma’naviyatning va tabiat bilan uyg‘unlikning ramzi hisoblanadi. Shu bilan birga, milliy kiyimlar bugungi kunda global modaning ta’siri ostida yangilanish va o‘zgarish jarayonlarini boshdan kechirmoqda.

Xalqaro moda sanoati va globallashtirish jarayonlari, shuningdek, yangi texnologiyalar va kommunikatsiya vositalarining rivojlanishi milliy kiyimlarni brendga aylantirish uchun yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Milliy liboslar, ularning dizayni va brendlashtirilishi nafaqat madaniy ifodaning bir shakli, balki ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan ham katta ahamiyatga ega bo‘lib bormoqda. O‘zbek dizaynerlari va brendlarining global bozorga chiqishlari uchun milliy kiyimlarning zamonaviylashtirilishi zarur. Ushbu jarayon, an’anaviy kiyimlarning zamonaviy dunyoga moslashtirilishi va ularni brend sifatida tanitish orqali amalga oshiriladi.

Ma’lumki, milliy liboslar faqatgina tarixiy yodgorlik sifatida qolmay, balki zamonaviy dizayn va marketing strategiyalari yordamida yangicha shakllanmoqda. Milliy

kiyimlarning brendga aylanishi o‘ziga xos qiyinchiliklar va imkoniyatlarni keltirib chiqaradi. Shu sababli, ushbu maqola milliy liboslar brendiga aylanish yo‘lidagi muhim bosqichlarni, mavjud imkoniyatlarni va muammolarni tahlil qilishni maqsad qiladi. Maqolada milliy liboslarni brendlashishda texnologik, ijtimoiy va estetik jihatlarni inobatga olgan holda, ularning global moda sanoatida qanday o‘rin tutishini o‘rganish rejalashtirilgan.

## METODOLOGIYA (METHODS)

Ushbu maqolada milliy liboslarni brendga aylantirish jarayoni va uning zamonaviy dizayn bilan uyg‘unlashtirilishi ilmiy yondashuv asosida tahlil qilinadi. Tahlil metodologiyasi quyidagi bosqichlardan iboratdir:

1. Adabiyotlar tahlili: Milliy liboslar, brendlashtirish va zamonaviy moda sohalaridagi ilmiy maqolalar, kitoblar va tadqiqotlar tahlil qilindi. Ayniqsa, o‘zbek dizaynerlari va milliy kiyimlarning global moda sanoatidagi roli haqidagi adabiyotlar o‘rganildi. Bu, an’anaviy kiyimlarning zamonaviy brendga aylanishidagi mavjud imkoniyatlarni aniqlashga yordam berdi.

2. Kvalitativ yondashuv: Mahalliy brendlar, masalan, “Bibi Hanum” va “Sharq Liboslari” kabi o‘zbek milliy kiyim brendlarining dizayn va marketing strategiyalari tahlil qilindi. Ularning kiyimlarini yaratish jarayoni, brendlarining identiteti va tarqatish kanallari o‘rganildi. Brendlarning ijtimoiy tarmoqlarda va moda ko‘rgazmalarida qanday faoliyat yuritayotgani o‘rganildi.

3. Sotsiologik tadqiqot: Milliy liboslarga bo‘lgan jamoatchilik e‘tibori va yoshlar orasidagi qiziqishni o‘rganish uchun anketalar va intervyular o‘tkazildi. Tadqiqot natijalari, o‘zbek milliy kiyimlariga bo‘lgan qiziqish darajasini va bu kiyimlarning zamonaviy brendga aylanish imkoniyatlarini ko‘rsatdi.

4. Tahlil va muhokama: Olingan ma‘lumotlar asosida milliy liboslarni brendlashtirishdagi imkoniyatlar va qiyinchiliklar tahlil qilindi. Zamonaviy dizayn tamoyillari, marketing strategiyalari va ijtimoiy omillarni hisobga olgan holda, milliy kiyimlarni global brendga aylantirishning muvaffaqiyatli yo‘llari aniqlanadi.

## NATIJALAR (RESULTS)

Tadqiqot davomida o‘zbek milliy liboslarini brendga aylantirish yo‘lida bir qancha muhim natijalar aniqlandi. Ulardan asosiylari quyidagilardan iborat:

- **milliy liboslarga bo‘lgan qiziqish ortmoqda.** O‘tkazilgan so‘rovnomalar va intervyular natijasiga ko‘ra, yoshlar orasida milliy kiyimlarga nisbatan qiziqish ortib borayotgani kuzatildi. Ayniqsa, bayramlar, to‘ylar, madaniy tadbirlar uchun milliy

liboslar tanlanishi, ularni zamonaviylik bilan uyg'unlashtirishga bo'lgan ehtiyoj kuchli ekanini ko'rsatdi.

- **mahalliy brendlar faoliyatida milliylik asosiy ustunlikka aylanmoqda.**

O'zbekistonda faoliyat yuritayotgan brendlar — masalan, “Bibi Hanum”, “Sharq Liboslari” va boshqa kichik dizaynerlik ustaxonalari — o'z kolleksiyalarida milliy naqshlar, atlas, adras, cho'lg'a kabi matolardan foydalanib, ularni zamonaviy fason va detallarda qayta talqin qilmoqda. Bu, liboslarning nafaqat estetik, balki madaniy jihatdan ham boy bo'lishini ta'minlaydi.

- **milliy liboslarni brendlash jarayonida marketing muhim o'rin tutadi.**

Mahsulotni yaratish bilan bir qatorda, uni to'g'ri taqdim eta olish, ijtimoiy tarmoqlarda faol yuritish, brend identitetini yaratish ham muhim omillar sifatida ajralib turdi. Tadqiqotda qatnashgan dizaynerlar milliy liboslarni xorijiy bozorlarga olib chiqishda aynan marketing va reklama imkoniyatlarini kengaytirish zarurligini ta'kidladilar.

- **an'ana va zamonaviylik muvozanati asosiy yondashuv sifatida qaralmoqda.**

Dizaynerlar tomonidan yaratilayotgan mahsulotlarda an'anaviy shakl, naqsh va texnikalar saqlanib qolgan holda, zamonaviy modadagi kesimlar, oddiylik va qulaylik prinsiplari asosida qayta ishlanmoqda. Bu esa milliy liboslarning nafaqat milliy bayramlarda, balki kundalik hayotda ham qo'llanilishiga yo'l ochmoqda.

- **xalqaro e'tibor ortib bormoqda.** So'nggi yillarda ayrim o'zbek dizaynerlari xalqaro moda haftaliklarida ishtirok etib, o'z milliy kolleksiyalarini namoyish qilishdi. Bu, o'z navbatida, o'zbek milliy liboslariga bo'lgan qiziqishning xorijda ham shakllanayotganidan dalolat beradi.

## MUHOKAMA (DISCUSSION)

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, o'zbek milliy liboslarini zamonaviy brendga aylantirish – bu faqat estetik dizayn emas, balki chuqur madaniy, iqtisodiy va kommunikativ jarayondir. Milliylik va zamonaviylik o'rtasidagi muvozanatga erishish dizaynerlar oldida turgan asosiy masalalardan biridir. Bu muvozanatni topa olgan brendlar nafaqat ichki bozorni egallaydi, balki xalqaro maydonda ham o'z o'rnini topa oladi. Milliylikni saqlagan holda yangilik yaratish zarurati dolzarb masalaga aylangan. An'anaviy kiyimlar — bu tarixiy merosdir. Ammo ularni faqat o'tmishga bog'lab qo'yish ularning rivojlanishiga to'sqinlik qiladi. Shu bois, dizaynerlar liboslarning asosiy shakli va ruhiyatini saqlagan holda, ularni zamonaviy moda, texnologiyalar va kundalik hayot talablariga moslashtirishga harakat qilmoqda. Bu yondashuv, ayniqsa, yoshlar orasida milliy kiyimlarga bo'lgan e'tiborni orttirmoqda.

O'zbek milliy liboslarining brendga aylanishi esa nafaqat iqtisodiy manfaatlar, balki o'z madaniyatini dunyoga tanitishning samarali yo'li sifatida ham katta ahamiyat kasb

etadi. Brend bu yerda mahsulotni sotish vositasi emas, balki uning orqasida turgan tarix, qadriyat, urf-odat va estetikani yetkazish imkonidir. Masalan, atlas yoki adrasdan tikilgan liboslar nafaqat chiroyli mato sifatida, balki o‘zbekona hayot tarzining va badiiy didning timsoli sifatida qabul qilinmoqda.

Shuningdek, milliy liboslar brendini shakllantirishda marketing va kommunikatsiya vositalarining o‘rni muhimdir. Mahsulot qanchalik chiroyli va mazmunli bo‘lmasin, u to‘g‘ri auditoriyaga yetkazilmasa, uning qiymati to‘liq ochilmaydi. Ijtimoiy tarmoqlar, moda blogerlari, vizual brending — logotip, rang palitrasi, professional fotosuratlar kabi zamonaviy vositalardan foydalanish milliy brendlarning xalqaro bozorda tanilishiga xizmat qilmoqda.

Yana bir muhim jihat — bu milliy liboslar bilan turizm o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikdir. Turistlar uchun milliy kiyimlar mamlakat madaniyatining yorqin timsolidir. Shu bois, ularni suvenir sifatida yoki zamonaviy “etnostil” liboslari shaklida taklif etish orqali turizm sohasiga xizmat qiluvchi yangi yo‘nalishlar shakllantirilmoqda.

Milliy brendlarni rivojlantirishda mahalliy qo‘llab-quvvatlov va ta‘lim tizimi ham muhim rol o‘ynaydi. Brend yaratish uchun nafaqat dizaynerlik salohiyati, balki zarur infratuzilma va amaliy imkoniyatlar ham mavjud bo‘lishi kerak. Dizayn yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalar uchun milliy liboslar tarixini o‘rganish, amaliy dizayn loyihalarida foydalanish, hamda kreativ fikrlashga rag‘batlantiruvchi sharoitlar yaratish muhimdir. Ta‘lim tizimi va amaliyot o‘zaro uyg‘unlashgan taqdirdagina, milliy brendlarning soni va sifati oshadi.

#### XULOSA (CONCLUSION)

O‘zbek milliy liboslarini brendga aylantirish masalasi bugungi kunda nafaqat dizayn sohasida, balki madaniyat, iqtisodiyot, ta‘lim va marketing kabi turli yo‘nalishlarda ham dolzarb mavzulardan biri bo‘lib bormoqda. Ushbu maqolada olib borilgan tahlillar asosida milliy kiyimlarning zamonaviy dizayn va marketing vositalari orqali xalqaro brend darajasiga ko‘tarilishi uchun zarur bo‘lgan asosiy omillar aniqlandi. Bu jarayon nafaqat an’anani saqlab qolish, balki uni zamon bilan uyg‘un holda rivojlantirishdir.

Eng avvalo, milliy liboslar brendi — bu oddiygina mahsulot emas, balki madaniy identitetning ifodasi, xalqning o‘zini anglash shakli va tarixiy xotiraning tashuvchisidir. Shu bois, har qanday dizayner va brend egasi bu liboslar orqali faqat tijoriy emas, balki estetik, axloqiy va madaniy mas’uliyatni ham o‘z zimmasiga oladi. Milliy naqshlar, matolar va shakllar nafaqat bezak sifatida, balki ularni yaratgan avlodlarning ruhiyati va qadriyatlari sifatida qaralishi lozim.

Tadqiqotda aniqlanishicha, milliy liboslarni muvaffaqiyatli brendga aylantirish uchun quyidagi asosiy shartlar bajarilishi kerak:

- birinchidan, **dizayn jihatidan innovatsiya va an'anaviylik o'rtasidagi muvozanatni** topish;
- ikkinchidan, **marketing va kommunikatsion strategiyalarni** to'g'ri yo'lga qo'yish;
- uchinchidan, **ichki va tashqi bozordagi auditoriyani chuqur tahlil qilish**;
- to'rtinchidan, **milliy va xalqaro ko'rgazmalar, moda haftaliklarida ishtirok etish** orqali brendni ommalashtirish;
- eng muhimi, **dizaynerlarning bilim va estetik qarashlarini rivojlantiruvchi tizimli ta'lim va amaliyotni** yo'lga qo'yish.

Shuningdek, milliy liboslar orqali o'zbek madaniyatining xorijda tanilishi uchun davlat va xususiy sektor tomonidan qo'llab-quvvatlash, grant va rezidensiyalar tashkil qilish, dizaynerlar uchun xorijiy tajriba almashish imkoniyatlari muhim o'rin tutadi. Bu yo'nalishda olib borilayotgan har qanday tashabbus faqatgina iqtisodiy emas, balki madaniy strategiya sifatida qaralishi zarur.

Xulosa qilib aytganda, o'zbek milliy liboslarini brendga aylantirish — bu bugungi davrning dolzarb ehtiyoji, estetik ehtiyoji va madaniy chaqirig'idir. Bu yo'l murakkab bo'lishiga qaramay, uni bosib o'tgan har bir dizayner, har bir brend va har bir san'atkor milliy g'ururni saqlash, madaniyatni rivojlantirish va uni yangi avlodga zamonaviy tarzda yetkazish yo'lida katta hissa qo'shadi.

#### Adabiyotlar ro'yxati (Bibliografiya)

1. Ahmedova, M. (2019). O'zbek milliy liboslari tarixi va zamonaviy rivojlanish yo'nalishlari. Toshkent: "San'at" nashriyoti.
2. Karimova, D. (2020). Dizayn asoslari va kiyim loyihalash. Toshkent: "Fan va texnologiya" nashriyoti.
3. Xasanova, G. (2021). "O'zbek milliy kiyimlarining modern modadagi o'rni". O'zbekiston san'ati jurnali, 2(34), 45–49.
4. Muminova, S. (2022). "Etnik uslubdagi libos dizaynlarining brendlashuvdagi ahamiyati". IJOD fanlari ilmiy jurnali, 1(10), 88–94.
5. Nigmatullaeva, R. (2018). Milliy hunarmandchilik va zamonaviy moda integratsiyasi. Toshkent: O'zbekiston Badiiy akademiyasi nashriyoti.
6. UNESCO (2021). Traditional Textile Craftsmanship in Uzbekistan. <https://ich.unesco.org>

## TABLE OF CONTENTS

<b>1</b>	MA'RIFAT BAYROG'INI KO'TARGAN ADIB. UMARQULOVA BARCHINOY SHERALI QIZI	<b>3-5</b>
<b>2</b>	ОЦЕНКА РЕЗУЛЬТАТОВ ЛЕЧЕНИЯ КИСТОЗНЫХ ОБРАЗОВАНИЙ ЧЕЛЮСТЕЙ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ КСЕНОМАТЕРИАЛОВ Абдукадиров Абдусалом Абдукадирович, Азимходжаева Феруза Абдикаримовна	<b>6-7</b>
<b>3</b>	POEMS-IN MEMORY OF CONTEMPORARIES OF MAQSUD SHAYKHZADEH Mamurova Feruza Islamovna, Rozmamatova Zilola Dilshodbek qizi	<b>8-11</b>
<b>4</b>	INTERAKTIV TA'LIM METODLARI Rahimberganova Oydinjon Qahramanovna, Olimova Dano Shakirovna	<b>12-15</b>
<b>5</b>	NEFROSKLEROZNING RIVOJLANISHINI TASHXISLASHNING SAMARALI VA INVAZIV BO'LMAGAN USULLARINI ISHLAB CHIQISH MASALALARINING DOLZARBLIGI Umarova Nargiza Nuritdinovna	<b>16-19</b>
<b>6</b>	ИММУНОМОДУЛЯЦИЯ ПРИ ХРОНИЧЕСКОМ ЭНДОМЕТРИТЕ: ВЛИЯНИЕ ТЕРАПИИ ГЛЮКОКОРТИКОИДАМИ НА ЧАСТОТУ ИМПЛАНТАЦИИ В ПРОГРАММАХ ЭКО Мадаминова Лайло Матякубовна	<b>20-21</b>
<b>7</b>	ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ЖИЗНИ ЖЕНЩИН В ПЕРИМЕНОПАУЗЕ И ИХ СВЯЗЬ С СОМАТИЧЕСКИМИ ЗАБОЛЕВАНИЯМИ Норбаева Н.А.	<b>22-24</b>
<b>8</b>	POLIKOMPONENT ALLERGENLARGA SEZUVCHANLIK HOLATLARIDA ALLERGIK KASALLIKLARNING KECHISHI, ZAMONAVIY KLINIK VA MOLEKULYAR YONDASHUV Ollanazarova Shahnoza San'atbek qizi	<b>25-26</b>
<b>9</b>	РОЛЬ ВИТАМИНА D ПРИ ЭНДОКРИННОМ БЕСПЛОДИИ У ЖЕНЩИН, ПРОЖИВАЮЩИХ В ЗОНЕ ПРИАРАЛЬЯ Алимова Махлиё Махмуд кизи, Атаджанова Замира Юсуповна, Ибодуллаева Мукаддас Олимбоевна	<b>27-28</b>
<b>10</b>	REPRESENTATION OF LINGUOCULTURAL ELEMENTS IN UZBEK LANGUAGE EDUCATIONAL CORPORA Mustafayeva Saodat Burhanovna, G.N.Tojiyeva	<b>29-31</b>

<b>11</b>	ВЛИЯНИЕ ПОВЫШЕННОГО УРОВНЯ ШУМА В ОБЩЕСТВЕННЫХ МЕРОПРИЯТИЯХ ХОРЕЗМСКОЙ ОБЛАСТИ НА СОСТОЯНИЕ ЗДОРОВЬЯ НАСЕЛЕНИЯ Абдуллаев Равшанбек Бабажонович, Мансурбеков Дадахон Мансурбекович, Бахтиярова Азиза Максудбековна	<b>32-33</b>
<b>12</b>	“SHAYXZODA NASRIYATI VA TARIXIY ONG: TARIXGA BADIY YONDASHUV NAMUNASI” Qodirov Islomjon Iqboljon o‘g‘li	<b>34-37</b>
<b>13</b>	KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNING INVESTITSIYA FAOLIYATINI FAOLLASHTIRISHGA TA’SIRI Xolmirzayeva Gulrux Akbarovna, Azimov Shamsiddin Dilshod o‘g‘li	<b>38-41</b>
<b>14</b>	“SHAYXZODA DRAMATURGIYASI: INSONIYAT, ADOLAT VA HAQIQAT IZLAB” Qodirov Islomjon Iqboljon o‘g‘li	<b>42-44</b>
<b>15</b>	UY-RO‘ZG‘OR BUYUMLARI BILAN BOG‘LIQ URF-ODATLAR To‘rayeva Shaxlo	<b>45-50</b>
<b>16</b>	EVALUATION OF THE EFFECTIVENESS OF PERSONAL HYGIENE PRODUCTS USED IN THE ORAL CAVITY OF CHILDREN Muxammadov Boburjon,, Dinikulov Jo‘rabek Abdunabiyevich	<b>51-57</b>
<b>17</b>	YURAK BILAN OG‘RIGAN BEMORLARDA SALOMATLIK SIFATINI BAHOLASH:TURLI XIL YORDAM VA PARVARISHLASH USULARINING BEMORLARNING UMUMIY SALOMATLIK SIFATIGA TA’SIRINI O’RGANISH. Xamrayev Rashid Ravshanovich, Abduraimova Dilbar Abdurasul qizi	<b>58-64</b>
<b>18</b>	“MILLIY LIBOSLAR BRENDGA AYLANISH YO‘LIDA: AN’ANADAN ZAMONAVIYLIKKA” NURULLAEVA RUXSHONA	<b>65-69</b>
	<b>OUTLINE</b>	<b>70-71</b>